

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLYI VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI



**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**IQTISODIYOT FAKULTETI**

Qodirov Nuraddin Xusinovich

**5340100-**"Iqtisodiyot (Makroiqtisodiyot)" ta'lim yo`nalishi bo`yicha bakalavr  
darajasini olish uchun

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Mavzu: Mintaqalarda tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy statistik tahlili

Ilmiy rahbar: *Masharipova* Masharipova M.A.

Urganch 2015 yil

## MUNDARIJA:

<b>Kirish</b> .....	<b>5-8</b>
<b>I-bob. Mintaqalarda tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining nazariy-uslubiy asoslari</b> .....	<b>9-30</b>
1.1.Mintaqada tadbirkorlikni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishining nazariy asoslari.....	<b>9-15</b>
1.2.Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida hududiy tadbirkorlikning rivojlanishining o`ziga xos xususiyatlari.....	<b>16-22</b>
1.3.Mintaqalar va ma`muriy hududlar hamjixatligining tadbirkorlik rivojidadagi o`mi.....	<b>23-30</b>
<b>II-bob. Xorazm viloyatida hududiy tadbirkorlikni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning statistik tahlili</b> .....	<b>31-50</b>
2.1 Viloyatning tabiiy-geografik va ma`muriy-iqtisodiy saloxiyati tahlili...	<b>31-34</b>
2.2 Hududiy tadbirkorlikning iqtisodiy samaradorligini statistik baxolash uslubi.....	<b>35-40</b>
2.3 Xorazm viloyatida hududiy tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ustuvor yo`nalishlari.....	<b>41-50</b>
<b>Xulosa va takliflar</b> .....	<b>51-53</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar</b> .....	<b>54-56</b>
<b>Ilovalar</b> .....	<b>57-65</b>

## Kirish

**Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi.** O`zbekistonda uzoq muddatli milliy strategik vazifani aks ettiruvchi – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiyalash va isloh etish kontsepsiyasi ishlab chiqildi va hayotga tatbiq etilmoqda.

Ushbu strategik vazifani bajarish va barqaror iqtisodiy o`sinh sur`atlariga erishishdagi asosiy omillardan biri mintaqaviy-hududiy tizim – viloyatlardagi qulay tadbirkorlik muhiti va uning ildam taraqqiyoti hisoblanadi. Chunki hududiy tadbirkorlikning izchil rivojigina jadal iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitidagi milliy va xorijiy bozor talablariga moslashib, ulkan raqobatbardoshlikni namoyon etadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ushbu masalaning muhimligi to`g`risida to`xtalib: “Yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining ulushi 2000-yildan buyon 31 foizdan 56 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda 12,9 foizdan 31,1 foizga o`sd.

2014 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida 480 mingdan ortiq yangi ish o`rni tashkil etildi. Bu yaratilgan jami ish o`rinlarining yarmi demakdir. Bugungi kunda iqtisodiyotning ushbu sohasida ish bilan band bo`lgan aholining 76,5 foizdan ziyodi mehnat qilmoqda. 2000 yilda bu ko`rsatkich 49,7 foizga teng edi. Iqtisodiyot sohasida izchil amalga oshirilayotgan ana shunday chora-tadbirlarimiz o`zining yuksak samarasini bermoqda. deb ta`kidlagan edilar<sup>1</sup>.

Darhaqiqat ,ushbu bildirilgan fikrlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish ularni iqtisodiy faoliyatdagi amaliyotini yanada takomillashtirish masalasiga dahldor hisoblanadi.

Mustaqillik yillari mobaynida mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy va huquqiy asoslari yaratilganligi natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlarining ijtimoiy-iqtisodiy

---

<sup>1</sup> O`zbekiston Respublikasi Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yonalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasi, Xalq so`zi gazetasi, 17 yanvar

holati sezilarli darajada yaxshilandi. Biroq, amalga oshirilgan ishlar ko'lamiga qaramasdan mintaqalarda bu sohada hali echimini kutayotgan muammolar ham bor.

Jumladan, xududiy tadbirkorlik sub'ektlarining turli kesim(tuman, tarmoq va tadbirkorlik shakli)larda rivojlanish tendentsiyalarini statistik baholash va tartibga solishda qo'llaniladigan algoritmlar majmuini ishlab chiqish, hududiy faoliyat samaradorligini statistik uslubini ishlab chiqish, iqtisodiy rivojlanish strategiyalari statistik modellarini tuzishning ilmiy-uslubiy va amaliy asoslarini ishlab chiqish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mintaqada tadbirkorlikni ijtimoiy –iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni statistik baholash, maxsus statistik usullardagi tahlilini amalga oshirish, istiqbollarni prognozlash muhimligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Xususiy tadbirkorlik nazariyasining rivojlanishi xorijlik olimlardan J.Bodo, M.Veber, Dj. K.Gelbert, X.Ken, R.Kantilon, Ya.Kornai, A.Marshall, D.Norta, V.Oyken, M.Porter, P.Samuelson, R.Berrouza, P.Geng'li, D.Kren, D.Nyubolda, D.Rassel, D.Toruell va boshqalarning asarlarida keng bayon etilgan. Xorij fanida katta hajmdagi ilmiy tadqiqotlar tadbirkorlikni o'rganishning turli yo'nalishlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Kichik biznes rivojlanishining zamonaviy tendentsiyalari MDH davlatlari olimlaridan Sh.Ageev, A.Busgin, A.Blinov, E.Buxvalda, O.Emelyanov, V.Korolev, A.Kolesnikov, M.Lapusta, S.Mazol, V.Malgina, S.Mokichev, A.Orlov, M.Popov, V.Radaev, V.Rube, Yu.Starostin, Yu.Taraxuna, V.Fadeevlarning ilmiy asarlarida keng yoritilgan.

O'zbekistonda hududiy tadbirkorlikning umumiy muammolari, shuningdek, ekonometrik modellarini tuzish bo'yicha mahalliy olimlardan S.S.Gulomov, Q.X.Abdurahmonov, X.P.Abulqosimov, YO.Abdullaev, A.V.Vahobov, A.Ayubjonov, X.Nabiev, M.Qosimova, B.K.Goyibnazarov va boshqa olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.** Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mintaqada tadbirkorlik faoliyatini nazariy-uslubiy jihatlarini takomillashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holatini statistik usullarda baholash yuzasidan ilmiy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining vazifalari.** Belgilangan maqsaddan kelib chiqib, bir qator vazifalar qo`yildi va hal etildi:

-hududiy tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi tutgan o`rni va o`ziga xos xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish;

-mintaqalarda tadbirkorlikni rivojlantirish borasidagi xorijiy tajribalardan samarali foydalanish yo`llarini asoslash;

- Xorazm viloyatida hududiy tadbirkorlikning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishining statistik usullardagi tahlilini amalga oshirish;

- Xorazm viloyatda hududiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo`yicha statistik kuzatishlar olib borish;

- viloyatda hududiy tadbirkorlikning samaradorligini oshirish bo`yicha ilmiy takliflar tayorlash.

**Bitiruv malakaviy ishining ob`ekti va predmeti.** Bitiruv malakaviy ishining ob`ekti sifatida Xorazm viloyati va uning ma`muriy boshqaruv tizimidagi tumanlar tanlangan. Bitiruv malakaviy ishining predmeti bo`lib, Xorazm viloyatining iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitidagi tadbirkorlik muhiti, uning barqaror rivojlanishi jarayonlarini statistik o`rganish hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining usullari.** Ish jarayonida qiyosiy taqqoslash, ekspert baholash, statistik guruhlash, korrelyatsion-regression tahlil, iqtisodiy indekslar va boshqa usullardan keng foydalanildi.

**Bitiruv malakaviy ishi natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Bitiruv malakaviy ishining natijalari, xulosa va takliflari hududiy tadbirkorlikni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini statistik tahlil qilish usullari, hududlarning iqtisodiy samaradorligini baholashning statistik uslubi to`grisida nazariy va amaliy bilimlar doirasini kengaytiradi.

Ishning amaliy ahamiyati shundaki, undan Xorazm viloyatida hududiy tadbirkorlikni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning mahalliy dasturini ishlab chiqish hamda amaliy chora-tadbirlar belgilashda foydalanishlari mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati hamda ilovalardan iborat .

**Bitiruv malakaviy ishining 1-bobi “Mintaqalarda tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlanib, unda mintaqada tadbirkorlikni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishining nazariy asoslari, iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida hududiy tadbirkorlikning rivojlanishining o`ziga xos xususiyatlari to`g`risidagi izlanishlar tadqiq qilinadi.

**Bitiruv malakaviy ishining 2-bobi " Xorazm viloyatida hududiy tadbirkorlikni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning statistik tahlili"** deb nomlanib, unda Xorazm viloyatining tabiiy-geografik va ma'muriy-iqtisodiy salohiyati tahlili, tadbirkorlikning iqtisodiy samaradorligini statistik baxolash uslubi hamda viloyatda hududiy tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ustuvor yo`nalishlari xususidagi ma'lumotlar keltiriladi.

Bitiruv malakaviy ishning xulosa qismida, bajarilgan ilmiy tadqiqotlarning xulosalari yoritilgan.

## **I-bob. Mintaqalarda tadbirkorlik faoliyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining nazariy-uslubiy asoslari**

### **1.1. Mintaqada tadbirkorlikni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishining nazariy asoslari**

Keyingi yillarda respublika hukumati tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida xususiy biznes faoliyat ko'rsatayotgan makroiqtisodiyot va tadbirkorlik muhiti ancha yaxshilandi. Buni mamlakatimiz tadbirkorlari ham, xorijiy ekspertlar ham e'tirof etmoqda.

Tadbirkorlikning tarkib topishi jamiyatdagi muayyan siyosiy va iqtisodiy vaziyatning vujudga kelishi bilan bog'liq. Aynan, mazkur viloyatdagi davlat tomonidan yaratilgan shart-sharoitlar tadbirkorlik rivojini himoya qiladi, qo'llab-quvvatlaydi va rag'batlantiradi. Mamlakatimizdagi tadbirkorlik muhitining himoyasi, iqtisodiy islohotlarning poydevorini tashkil etdi. Bu poydevor mulkchilik va tadbirkorlik to'g'risidagi qonunlar bilan ta'minlanganligini ta'kidlash lozim. So'ngra O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun asosiy zamin bo'ldi.

Biroz keyinroq esa, "Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish to'g'risida" (1995 yil 21 dekabr) ham qonun qabul qilindi. Ketma-ket qabul qilingan qonunlar va hukumat hujjatlari tadbirkorlik muhitini ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlari talablari darajasi tomon harakatni jadallashtirdi.

Bu sohaga e'tibor O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan quyidagicha baholandi: "Erkin tadbirkorlik uchun iqtisodiy va xuquqiy shart-sharoit yaratish zarur. Tadbirkorlik tuzilmalarining moliya, bank va boshqa bozor tuzilmalari bilan bozor munosabatlarini mustahkamlash, eng muhimi, kredit olish yo'lida mavjud to'siqlarni olib tashlash lozim. Ularning xom ashyo resurslaridan foydalanishlariga keng yo'l ochib berish, ular ishlab chiqarayotgan mahsulot mamlakat o'zida ham, uning tashqarisida ham sotiladigan bozorni kafolatlovchi tizimni barpo etish darkor"<sup>2</sup>

---

<sup>2</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O'zbekiston, 2000, 16-bet.

Darhaqiqat, institutsional islohotlarning samarasi sifatida ko'p bosqichli tadbirkorlik muhitini qo'llab-quvvatlash tizimi shakllandi. Bular:

- Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash qo'mitasi va uning hududiy bo'limlari;
- Tadbirkorlikning jamoat tashkilotlari (Savdo-sanoat palatasi, Dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasi, tadbirkor ayollar uyushmasi);
- Moliya-kredit institutlari (Tadbirkor bank, Dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash fondi, Qishloq xo'jaligi texnikasi bilan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash fondi);
- Xom ashyo va materiallar hamda tovarlarni sotib-olish va sotish bo'yicha infratuzilmalar (Ulgurji birja savdo, Agrosanoat birja, O'zsavdomarkaz, mintaqaviy va ixtisoslashgan bozorlar);
- Tadbirkor kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash va axborot maslahat bilan quvvatlash institutlari (biznes inkubator va biznes maktablar);
- Iqtisodiy qaltislikni kafolatlash bo'yicha sug'urta xizmatlari (UzagroSug'urta, Uzbekinvest, Madad).

Modomiki tadbirkorlik muhitining zaruriy shart-sharoitlari barpo etilgan ekan, uning faoliyati uchun monelik qiladigan kuch ham barham topadi. Biroq tadbirkorlik muhitini rivojlantirish va takomillashtirishga ma'muriy va direktiv yondashuv bilan amalga oshmaydi. Tadbirkorlik muhitini boshqarish tadbirkorlik sub'ektlari uchun qulay bo'lgan sharoitida faoliyat ko'rsatishga oid choralar ishlab chiqish va tadbiriq etishni talab etadi.

Erishilgan tub siljishlarni sobiq ma'muriy buyruqbozlik tizimi davridagi yondashuvlar bilan taqqoslaylik. Bir paytlar akademik N.N.Nekrasov ta'rifiga ko'ra, "mintaqaviy iqtisodiyot mamlakatni ishlab chiqarish kuchlari mintaqaviy rivojlanishning iqtisodiy strategik pozitsiyalarini ishlab chiqadi. Ishlab chiqarish kuchlarini maqsadga muvofiq joylashtirish mintaqaviy iqtisodiyotning asosi, bosh



tarkibiy qismi”<sup>3</sup> deb qaraladi degan.

Bizning fikrimizga tadbirkorlik muhitini tarkib toptirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, u ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

1. Jamiyat a'zolari psixologiyasi o'zgarishi bilan bog'liq ravishda ijtimoiy-iqtisodiy tafakkurning o'zgarishi;
2. Tadbirkorlikni rag'batlantiruvchi milliy dasturning mavjudligi.

Shuningdek, qulay tadbirkorlik muhiti aholi iqtisodiy faolligining bosh manbai ham hisoblanadi. Bunda aholi bandligi va daromadi oshishi uchun sharoit yaratiladi, ijtimoiy iqlim aholi turli qalamlari o'rtasidagi ziddiyatlarning yumshashiga, hamkorlikning tarkib topishiga hissa qo'shadi.

Bundan tashqari,bozor munosabatlariga moslashuvning tezlashuviga olib keladi, mulkdorlar sinfini shakllantiradi. Har bir fuqaro, nafaqat o'z ishchi kuchini, balki moddiy, moliyaviy va intellektual mulkini ham iqtisodiy munosabatlar jarayoniga jalb etadi. Tadbirkor bunday muhitda iqtisodiy vaziyatning qaltis tebranishlariga ham mos bo'lgan choralarni tadbiq etadi, o'z faoliyatini asoratsiz o'zgartiradi. Mabodo ayrimlar bankrotlik darajasigacha bo'lgan taqdirda ham, qayta tiklanish uchun ijtimoiy himoya ham tarkib topadi. Ayniqsa, bunday sharoitda mamlakat, mintaqa yoxud biror hudud uchun fojiali iqtisodiy oqibatlar ro'y bermaydi.

Shuning uchun ham I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek<sup>4</sup> : “tadbirkorlar faoliyatiga noxolis, tirnoq ostidan kir qidirish kayfiyati bilan qarashdan butunlay voz kechish, aksincha, ularning manfaatlari va qonuniy huquqlari himoyasini to'la ta'minlash fursati etdi. Mamlakatimiz kelajagini belgilab beradigan bu toifa vakillariga shunday huquqiy zamin, imtiyoz va kafolatlar tizimini yaratish kerakki, ular o'zi, o'z oilasi, butun mamlakat iqtisodiyotining ravnaqi yo'lida -erkin va aniq

---

<sup>3</sup>Некрасов Н.Н. Региональная экономика. Теория, проблемы, методы. – М.: Экономика, 1978,стр-19.

<sup>4</sup>Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islox etishdir. / Oliy majlis qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2005 yil 30 yanvar.

maqsad bilan mehnat qila olsinlar”.

Tadbirkorlik muhitining takomillashuvi har bir shaxs uchun o`z kelajagini yaxshiroq boshqarish imkoniyatini kengaytiradi. O`z qobiliyati va iste`dodini oshirish uchun jiddiy e`tibor ortadi. Shaxsiy hayot va milliy turmush tarzining yaxlitligi milliy boylik va milliy farovonlik o`shishiga xizmat qiladi (1-ilovaga qarang).

Demak, milliy-hududiy iqtisodiyot taraqqiyoti va samaradorligi tadbirkorlik muhitiga bevosita bog`liq. Bu bog`liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$E = f(D),$$

bu erda: E – iqtisodiy jarayonlar faolligining samaradorligi, D – mintaqadagi tadbirkorlik muhiti.

Tadbirkorlik muhiti xususiy iqtisodiy manfaatdorlikni, ijtimoiy-iqtisodiy manfaatdorlikka etkazadi. Boshqacha aytganda, bunday muhitda iqtisodiy xudbinlik, ijtimoiy hamkorlik, uyushqoqlik va hamjihatlikni tarkib toptiradi.

Darhaqiqat, tadbirkorlik muhitining tarkib topishi bilan bog`liq va unga ta`sir etuvchi omillarni guruhlash va shu asosda tadbirkorlik muhitini tarkib topishi va rivojlanishining tashkiliy-iqtisodiy modelini hosil qilish mumkin. (2-ilovaga qarang).

Tadbirkorlik muhitining tarkibiy omillari sifatida quyidagilarni ta`kidlash mumkin:

- aniq bir mahsulotga nisbatan iste`molchilarning to`lov qobiliyati. Bunda bozordagi haqiqiy talab bilan kutilayotgan talab farqlanadi, tovar o`zining xususiyatlari bilan avvalgilardan ajralib tursa, iste`molchining talabi marketing usullari bilan aniqlanadi;

- tavakkalchilik va bozordagi xatarlarni o`ziga olib, mulkiy javobgarlik asosida ish yurita oladigan tadbirkorlik. Ular o`z mulki, bilim va sarmoyasini samarali ishlata oladigan, bozordagi qaltis vaziyatlarga moslasha olish qobiliyatiga ega bo`lishlari lozim;

- sarmoyaga qo`yishga imkoniyatli sarmoyadorlar. Bunga ijtimoiy shaxslar, erkin sarmoyaga ega korxonalar, tashkilotlar hamda tadbirkorlarning o`zlari kiradi: banklar, jamg`armalar, sug`urta kompaniyalari, davlat tashkilotlari, chet el

sarmoyadorlari va boshqalar;

- tadbirkorlik faoliyatini bir me'yorda olib borish imkoniyatlarini beruvchi infratuzilmalar. Ular qatoriga moliya-kredit, audit, marketing, konsalting, axborot, sug`urta va shu kabi xizmatlar ko`rsatuvchi tashkilotlar kiradi;

- qaror qabul qilish tizimi. Bu tizim tarkibiga avvalo biznesning ishonchliligi va samarali bo`lishini baholash imkonini beruvchi mezonlar, usullar to`plami kiradi.

Tadbirkor bu tizim orqali o`z ish natijasini baholash imkoniga ega bo`lishi kerak. Shu omillarning tizimli va o`zaro hamjihat harakati qonuniyatlari tadbirkorlar faolligini oshiradi. Masalan, iste'molchi talabi omilini tahlil etaylik.

Har bir hududdagi iste'molchining talabini aniqlash tadbirkordan katta malaka talab qiladi. Ayni chog`da tadbirkor uchun tashqi bozordagi vaziyatni kuzatish va xolis baholay olishi muhim. Milliy to`lov qobiliyati, tabiiy shart-sharoitlar va boshqalarni hisobga olib bilish tadbirkorning muhit bilan jiddiy munosabatda ekanligidan dalolat.

Agar xorij tajribasiga nazar solsak, mashhur tadbirkor L.Vinning ta'kidlashicha<sup>5</sup>, iste'molchi – bu o`ta muhim shaxs. Iste'molchi bizga bog`liq emas, balki biz unga bog`liqmiz. U bizning ishimizga halaqit bermaydi, aksincha u bizning ishimizda bosh maqsad va mantiqdir. Iste'molchi shunday shaxski, u bilan tortishib bo`lmaydi. U bilan tortishib hech qachon hech kim yutgan emas! Demak, iste'molchini jalb qilish tadbirkorning bosh muammosi va maqsadidan iborat.

O`zbekistonda o`tgan 23 yil mobaynida strategik xarakterdagi bir qator muhim umummilliy qonuniy hujjatlar, Prezident qarorlari va boshqa me'yoriy xujjatlar qabul qilingan bo`lib, ularda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning barcha sohalarida chuqur va bosqichma-bosqich islohotlarni amalga oshirish ko`zda tutilgan. Respublikamizning 2014 yilgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlariga ko`ra, Yalpi ichki mahsulotning yillik o`sishi 8.1 foizni tashkil qildi.

Mamlakatimizda islohotlarning chuqurlashtirilishi mulkchilik munosabatlaridagi, xo`jalik yuritishdagi, etakchi tarmoqlar rivojidadagi tub tarkibiy islohotlarda namoyon bo`lmoqda. Xususan, don, yonilg`i-energetika mustaqilligiga

---

<sup>5</sup> Ф.Котлер. Основы маркетинга. – М.: Прогресс, 1990, стр-38

erishilishiga, avtomobil sanoati barpo etilishiga, transport-kommunikatsiya tizimining yangilanishiga, paxta xom ashyosining chuqur qayta ishlanishiga o`tilishiga, tog`-kon sanoatining modernizatsiyalanishi kabi qator ijobiy natijalarga aynan tub tarkibiy islohotlar tufayli erishildi.

Ko`rinib turibdiki, O`zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikning mustahkamlanishi va iqtisodiy o`shish sur`atlarining jadallashish tendentsiyalari namoyon bo`lmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlik muhitini yaxshilash borasida ham tub tashkiliy-xuquqiy islohotlar chuqurlashtirilmoqda. Jumladan,

-umumdavlat va xududiy manfaatlar mutanosibligini tiklashga qaratilgan ikki palatali parlament faoliyatiga asos solindi. Yuqori palata - Senat faoliyatida xududiy manfaatlarni himoyalash mexanizmining shakllanishi alohida o`rin egallaydi.

-hokimiyat tarmoqlarining (qonunchilik, sud va ijro) mutanosiblik va muvozanatlik kafolatlari kengaytirildi. Ayniqsa, o`z-o`zini boshqarish organlarining «kuchli davlatdan kuchli jamiyatga» tamoyili asosidagi faolligi oshdi.

Jiddiy ma`muriy islohotlarga kirishildi, ya`ni davlat boshqaruvi organlari vakolatlari aniq chegaralab berildi. Boshqaruv xodimlari va ular tomonidan o`tkaziladigan tekshiruvlar soni qisqartirildi va boshqalar.

Ayni paytda, kuzatuv va tahlillarga ko`ra, mamlakat real sektorining iqtisodiy ko`rsatkichlaridagi o`shish tendentsiyalari xududlar miqyosida ham davom etayotganligi ijobiy hol hisoblansada, xududlarning rivojlanish darajasi orasidagi tafovut kamaymayotganligi tashvishlanarli hisoblanadi. Ayniqsa, bunday tafovutlarning aholi jon boshiga hisoblangan iqtisodiy ko`rsatkichlari mavjud vaziyatni baholashga imkon yaratadi.

Har bir tadbirkorlik sub`ekti ushbu ketma-ketlikda munosib o`ringa ega bo`lsagina milliy va hududiy o`shishdagi barqarorlik sur`atlari ta`minlanadi. Boshqacha qilib aytganda, har bir sub`ekt faoliyatining mohiyati ham yangicha talqin etiladi. Ilgarilari nafaqat korxonalar, balki ma`muriy hududlar xam “sotib

olish uchun sotish” bilan shug`ullanib kelgan bo`lsalar, integratsiya va xalqaro savdo jarayonida “sotish uchun sotib olish” tamoyili ustuvorlikka erishadi. Ushbu yondashuvning amaliyotga tatbiq etilishi xududiy tadbirkorlik sub`ektlarining jahon bozoridagi raqobatbardoshlik darajasini saqlab turadi.


Bunda “import o`rnini bosish” yoki “eksportga yo`naltirilgan ishlab chiqarish”ga o`tish bilan cheklanilmaydi. Pirovardida korxonalar yoki ixtiyoriy bir hududiy tashqi savdo balansining ijobiy bo`lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ayrim korxonalar yoki tarmoqda ishlovchilarning emas, balki yaxlit bir hudud aholisi turmush darajasining yuksalishiga olib keladi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish, uni samarali boshqarish mamlakat hukumati bu masalaga qay darajada yondashishiga bog`liq. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish muammolarini o`rganayotgan tahlilchilar fikricha, ko`pgina mamlakatlar iqtisodiyotda davlatning tartibga soluvchilik rolidan umuman voz kechishi o`gir oqibatlarga olib kelmoqda.

Tadbirkorlik doimo iqtisodiy nochor qolish yoki foydaning kamayishi xavfi bilan bog`liq. Tadbirkorlik faoliyatini yuritishda tavakkalchilik holatlari ko`p bo`lishiga qaramay, tavakkalchilik qarorlarini qabul qilishda haddan ziyod ehtiytkor bo`lgan tadbirkorlar o`z korxonalarini turg`unlikka va raqobatbardoshligi yo`qotilishiga duchor qiladilar.

## 1.2. Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida hududiy tadbirkorlikning rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekiston iqtisodiyotidagi tuzilmaviy o'zgarishlar, xususiyl sektorning rivojlanishi tabiiyl resurslardan foydalanish, boshqaruvni takomillashtirishga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Kichik biznes va xususiyl tadbirkorlikda mavjud resurslardan oqilona foydalanish, tejamkor innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriyl etish, yangi xizmat turlarini tobora ko'proq taklif etish masalalariga diqqatni jamlash muhim sanaladi.



### 1.2.1 -rasm. Tadbirkorlik faoliyati samaradorligi va tavakkalchilik darajasiga ta'sir etuvchi omillar

Bundan tashqari, tadbirkorlik faoliyatini boshqarishning yangi iqtisodiy uslublaridan foydalanish maqsadga erishish uchun asosiy yo'llardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda ushbu soha faoliyati amalga oshayotgan hududlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, shu asosda ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish mutaxassislar tomonidan tavsiya qilinadi. Bunda yirik biznesga yaratilgan shart-sharoitlar, imkoniyatlar va ularning faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni boshqarish mexanizmlaridan tamomila farqlanishini yodda tutmoq kerak.

Haqiqatdan ham, iqtisodiyotning bu ikki sohasi o'ziga xos xususiyatga egaligi uchun ham farqlanishini xorij tajribasi hamda respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning oraliq yakunlari ko'rsatib turibdi.

Quyidagi 1.2.1-rasmda aks etishicha mustaqillikning dastlabki yilida O'zbekistonda kichik biznesning ulushi 1.5 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2000 yilga kelib bu ulush 31.5 %ga yetdi. Yangi asr boshida kichik biznesning ulushi oshishda davom etib, 2014 yilda bu ko'rsatkich 56.0% ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, 1.2.1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, 2000 yilda kichik biznes subyektlari tomonidan jami sanoat ishlab chiqarishining ulushi 12,9 foizni tashkil qilgan bo'lsa 2014 yilda bu ko'rsatkich 31,1 foizga o'sganini ko'rish mumkin.


Bugungi kunda mamlakatimizning boshqa hududlari kabi Xorazm viloyatida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yildan yilga rivojlanib kelmoqda. Mazkur sohaning amal qilishi va taraqqiyoti jarayonida viloyat hokimligi tomonidan doimiy monitoring yuritilishi negizida kamchiliklar bartaraf etilib kelinmoqda.

Buni quyidagi 1.2.1-jadval ko'rsatkichlarida ko'rishimiz mumkin. 1.2.1-jadvaldan Xorazm viloyatida 2014 yil bo'yicha YaHM hajmi 4736,3 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2013 yilda 111,7 foizni tashkil etgan. 2014 yil bo'yicha Xorazm viloyatida eng yuqori ulush qishloq xo'jaligi mahsulotlari– 2236,8 mlrd.so'm hajmiga to'g'ri kelib, bu ko'rsatkichlar 2013 yilga nisbatan 1,8

marta, yoʻlovchi aylanmasi – 107,3% ga, yuk aylanmasi –107,0 foizni tashkil qilganini koʻrish mumkin.

### 1.2.1-rasm

#### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi(foizda)<sup>6</sup>



Viloyat koʻrsatkichlari past hamda 2013 yilga qaraganda hajmi kamayganlari isteʼmol tovarlari – 1011,7 mlrd.soʻm (186,7%), aholiga pullik xizmat koʻrsatish – 963,6 mlrd.soʻm (113,7%), asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar – 1220,5mlrd.soʻm (97,9,%), sanoat mahsulotlari – 1651,7 mlrd.soʻm (147,6%) ulushiga toʻgʻri kelmoqda.

<sup>6</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Statistika boshqarmasi maʼlumotlari .



1.2.1-jadval

Xorazm viloyatining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari (mlrd.so`m)

	O'lchov birligi	2014 yil yanvar-dekabr	2013 yil yanvar-dekabriga nisbatan foiz hisobida
Yalpi hududiy mahsulot	mlrd. so`m	4736,3	111,7
Sanoat mahsuloti	mlrd. so`m	1651,7	147,6
Iste'mol tovarlari	mlrd. so`m	1011,7	186,7
Qishloq xo'jalik mahsulotlari	mlrd. so`m	2236,8	106,8
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	mlrd. so`m	1220,5	97,9
Qurilish ishlari	mlrd. so`m	1019,5	113,2
Yuk aylanmasi	mln. tn-km	1261,7	107,0
Yo'lovchi aylanmasi	mln. yo'lovchi-km	4357,6	107,3
Chakana tovar aylanmasi	mlrd. so`m	2341,3	109,3
Aholiga pullik xizmat ko'rsatish	mlrd. so`m	963,6	113,7
Tashqi savdo aylanmasi	mln. AQSh doll	351,3	117,8
Eksport	mln. AQSh doll	179,6	90,6
Import	mln. AQSh doll	171,7	11,4

Manba: Xorazm viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

Bundan tashqari, tashqi bozorda kon'yunkturaning yomonlashuviga qaramasdan, viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2014 yilning yanvar-dekabr oylarida ming AQSh dollarini yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 117,8 foizni, shu jumladan MDH mamlakatlari bo'yicha 142629,3 ming AQSh dollarini (123,4 foiz), boshqa xorij mamlakatlari bo'yicha 208687,6 ming AQSh dollarini (114,2 foiz) tashkil qildi. Umumiy eksport hajmi 179570,2 ming AQSh dollarini, import 171746,7 ming AQSh dollarini tashkil qildi.

Bugungi kunda tashqi savdo tarkibida chuqur ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Keyingi yillar mobaynida eksport tarkibida raqobatdosh tayyor mahsulot salmog'ining barqaror o'sish tendentsiyasi va xom ashyo etkazib beruvchi tarmoqlar mahsulotlari ulushi kamayib borayotgani yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Ta'kidlash kerakki, tashqi savdo munosabatlarimiz geografiyasi, avvalo, rivojlanib borayotgan Osiyo qit'asi bozorlari bilan savdo aylanmasining o'sishi hisobiga sifat jihatidan o'zgarmoqda.

Bu ko'rsatkichlarning barchasi, avvalo, eksport tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan raqobatbardosh tayyor mahsulot ulushining izchil oshishi, birinchi navbatda, iqtisodiyotimizning o'sib borayotgan salohiyati va imkoniyatlaridan dalolat beradi. Shu bilan birga, bunday holat eksportimizning xom ashyo resurslari narxi tez-tez o'zgarib turadigan jahon bozori ta'siriga bog'liqligini kamaytirishda muhim yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.

Qishloq joylardagi kichik va xususiy korxonalariga resurs ta'minotida, mahsulotni sotishda va transport xizmati ko'rsatishda yordam beradigan, mahsulotni saqlash, qayta ishlash va sotishni amalga oshiradigan, aholiga kommunal, maishiy, tuzatish-qurilish xizmatlari ko'rsatadigan, fermer, dehqon xo'jaliklari a'zolari, shaxsiy yordamchi xo'jaliklar egalarini o'qitadigan, axborot ta'minoti va yuridik maslahat xizmatlarini ko'rsatuvchi bozor institutlari faoliyatini yanada jadallashtirish lozim.

Aytish mumkinki, yalpi talab yoki yalpi taklif hajmining ko'rib chiqilgan omillar ta'sirida o'zgarishi ular o'rtasida vujudga kelgan muvozanat buzilishiga

olib keladi. Buning natijasida bozor yoki davlatning tartibga soluvchi mexanizmlari ishga tushib, ular yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi yangi muvozanatni shakllanishga undaydi. Shu tariqa «muvozanatlik → muvozanatlikning buzilishi → yangi muvozanat» sxemasi ostida uzoq muddatli muvozanatlik amal qiladi.

Xorazm viloyatida ishlab chiqarilayotgan mahalliy mahsulotlarga bo'lgan talab va taklifning muvozanatlashmagani, aholining oziq-ovqat tovarlari bilan ta'minlanish darajasining pastligi mintaqa, ayniqsa tumanlarda istemol bozoriga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mahsulotga bo'lgan talabni o'rganish, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish va ularni ishlab chiqarishga joriy etish tadbirlarining yetarli darajada o'tkazilmayotgani, professional marketologlarning yo'qligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini ta'minlashga, hududda istemol tovarlari ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirishga to'sqinlik qilmoqda. (3-ilovaga qarang)

Shunday bo'lsada, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini hisobga olgan holda, tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan non va non mahsulotlari, makaron, kolbasa, meva - sabzavot konservalari, sut mahsulotlari ishlab chiqarish kengayib bormoqda. So'nggi yillarda shakar (30 barobardan ziyod), sut mahsulotlari (7 barobar), likyor-aroq (2,3 barobar), kolbasa (1,1 barobar) mahsulotlari va mineral suvlar (.1,2 barobar) ishlab chiqarish sezilarli ravishda ko'paydi. Ushbu sohada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning 85 foizdan ortig'i Urganch shahar tumanlariga, Urganch va Xazarasp tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Yuqorida qayd etilgan tovarlarga bo'lgan ehtiyoj Toshkent shahri va mamlakatning boshqa hududlaridan keltiriladigan mahsulotlar hisobidan qoplanmoqda.

Viloyatda tadbirkorlik muhiti tarkib topishidagi ichki omillarning keng qamrovi tahlili quyidagilardan dalolat beradi:

1. Umuman viloyatda tadbirkorlik muhiti qoniqarli darajada tarkib topgan. Biroq viloyatning ma'muriy buyruqbozlikdan qolgan tor ixtisoslashuv va

mehnat taqsimotining boshlang`ich holda saqlanayotganligi viloyatdagi tadbirkorlik rivojiga monelik qilmoqda;

2. Mavjud infratuzilmaning noqulay vaziyati qishloq tuman markazlari va boshqa shaharlashgan manzillarda iste'mol mollari, xususan engil va oziq-ovqat sanoati mollari ishlab chiqarishni yangi texnologiyalar asosida rivojlantirishga ko`ndalang bo`lib qolmoqda.;

3. Viloyatda iqtisodiy band aholi bilan mehnat resurslari soni orasidagi farqning ortishiga, fermer xo`jaliklari sonining ortishi to`gri proporsional holda ta'sir qilmoqda;

4. Viloyatdagi tadbirkorlik muhitining himoyalinishi, qo`llab-quvvatlanishi va rag`batlantirilishi qishloq xo`jaligidagi tarkibiy islohotlar, xususan paxtachilikka munosabatning erkinlashtirish darajasiga bog`liq. Bunda ikkita yo`l mavjud, ya'ni paxtachilik to`liq davlat himoyasiga olinishi kerak yoxud ekinlar tanlovida erkinlikni oshirish lozim;

Xulosa qiladigan bo`lsak, kichik tadbirkorlik hozirgi bozor munosabatlari jarayoni tobora chuqurlashib borayotgan bir davrda, respublikamizning iqtisodiy taraqqiyotiga sezilarli darajada hissa ko`shmoqda. Shu tufayli, kichik va o`rta tadbirkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga ko`tarish shu kunning dolzarb vazifalaridan biri bo`lib qolmoqda. Chunki kichik tadbirkorlik qanchalik rivojlansa, ularning soni ko`payib, ishlab chiqarish va sifat oshib borsa, mamlakatimizning iqtisodiy qudrati tobora oshadi, xalq farovonligi yuksaladi.

### **1.3. Mintaqalar va ma'muriy hududlar hamjihatligining tadbirkorlik rivojidadagi o'rni**

Ma'muriy hududlar va iqtisodiyot tarmoqlarining o'zaro mutanosib va hamjihatlikdagi ravnaqi mamlakatimizni modernizatsiya va isloh qilish faoliyatidagi bosh maqsadimizning sababiy zaruriyati va zamiri hisoblanadi. Ayni chog'da xususiy biznes va tadbirkorlik muhitidagi qulay amaliy shart-sharoitlarga hamjihatlikning namoyon bo'lishini ta'minlaydi.

Keyingi ishlarda Respublika Hukumati tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida xususiy biznes faoliyat ko'rsatayotgan makroiqtisodiyot va tadbirkorlik muhiti yaxshilandi, ya'ni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amaliy imkoniyatlar ortdi:

Xususiylashtirish ko'lamining kengaytirilishi kafolatlandi;

1.Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatiga olishning soddalashtirilgan mexanizmi joriy qilindi;

2.Mahsulot va xizmatlarni sertifikatsiyalash tartibi unifikatsiya qilindi;

3.Tadbirkorlikning kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlari kengaytirildi;

4.Zarar ko'rib ishlayotgan past rentabelli shirkat xo'jaliklari negizida fermer xo'jaliklarini tashkil etish ko'lami ortdi va hokazo.

Yuqoridagi makroiqtisodiy tadbirlarning amaliy natijalarini tashkiliy-iqtisodiy va moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlardagi o'zgarishlarning izchilligida ham kuzatish mumkin.

Masalan, viloyatda mehnat resurslarining soni, 1994 yilda 539,4 ming kishidan 2013 yilda 989,7 ming kishiga yoki 183,4 foizga oshgani holda, viloyatda mehnatga layoqatli aholi soni 1994 yilda 548,1 ming kishidan 2013 yilda 1108,4 ming kishiga yoki qariyb 2 barobardan ko'p oshgan.(4-ildovaga qarang)


O'tgan 2014 yil yanvar-dekabr oylarida esa, mehnat resurslarining soni, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2013 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 102,0 foizga ko'payib 953,2 ming kishini yoki viloyat doimiy aholisining 55,6 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faol aholi soni 697,2 ming kishini tashkil etdi va 2013 yilning shu

davriga nisbatan 100,4 foizga ko`paydi, shu jumladan 678,6 ming kishi yoki iqtisodiy faol aholining 97,3 foizi iqtisodiyotda band bo`ldi.

Bundan tashqari, 2014 yil yanvar-dekabr oylarida mehnat bo`limlariga ishga joylashtirishda yordam berishni so`rab 18,6 ming fuqaro murojaat qilgan. Bu 2013 yilning shu davriga nisbatan 15,1 ming kishiga kamdir.

Quyidagi rasmda mehnat bo`limlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni quyidagicha ifodalanadi:



### 1.3.1-rasm. Bandlikka ko`maklashuvchi markazlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni (kishi)<sup>7</sup>

Rasm ma`lumotlarida viloyatning tumanlari kesimida bandlikka ko`maklashuvchi markazga ish so`rab murojat qilgan fuqarolar soni aks etadi. Bunda eng yuqori ko`rsatkichlar 2014 yil yanvar-dekabr oylarida Xazarasp tumanidan 2620,0 kishi, Xiva tumanidan 2418,0 kishi va Urganch shahridan 1765,0 kishi markazga ish so`rab murojat qilganini korishimiz mumkin .

Bundan tashqari, mehnat bo`limlarida ro`yxatga olingan ish bilan band bo`lmagan fuqarolar umumiy sonidan shu yilning 2015 yil 1 yanvar holatiga 116 kishi yoki 0,6 foizi ishsiz deb e`tirof etilgan.

Shuning uchun ham, viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni

<sup>7</sup> www.xorazmstat.uz

rivojlantirish iqtisodiy islohatlarning bugungi bosqichida muhim ahamiyatga ega. Chunki kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mintqa aholisining yirik ishlab chiqarishga jalb qilinmagan qismini ish bilan ta'minlashda hamda turli kasb va mutaxassislik egalarining faoliyat yuritishlariga imkon yarata olishi bilan ham afzaldir.

Shunday ekan, mintaqada mazkur sohani taraqqiy ettirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir samarali chora tadbirlarni ishlab chiqish boshqarish mexanizmni yanada takomillashtirish iqtisodiy islohatlarning bugungi bosqichida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning huquqiy manfaatlarini himoyalash hamda qo'llab-quvvatlash borasidagi amaliy ishlar natijalarining respublikamiz hamda Xorazm viloyati statistik ma'lumotlari asosidagi qiyosiy tahlili muayyan xulosalarga olib keldi (1.3.1-jadvalga qarang).

O'tgan olti yil mobaynida viloyat iqtisodiyotida kichik biznes barqaror yuqori suratlarda o'sdi. Natijada 2008 yilda viloyat YaHM da kichik biznesning ulushi 63,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2014 yilda esa bu ko'rsatkich 73,9 foizni tashkil qildi. Jadval orqali viloyat iqtisodiyotida kichik biznesning xissasi uning respublika bo'yicha mavjud darajasidan yuqoriligini ko'rishimiz mumkin.


Viloyat iqtisodiyotida kichik biznes salmog'ining ortib borishi birinchi navbatda qo'shimcha kichik biznes subyektlarining tashkil qilinishi va ular faoliyatining samaradorligiga bog'liqdir.

Darhaqiqat, mamlakatimizda kichik biznesning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha muhim me'yoriy-huquqiy xujjatlar va infratuzilma yaratilgan bo'lib, ular bu sohaning zamon talablari darajasida rivojlanishi uchun ko'plab imkoniyatlar va imtiyozlar tizimini yaratmoqda.

So'nggi yillarda tadbirkorlik faoliyatiga davlat aralashuvining keskin kamayishi, hisobot topshirishning qisqartirilishi va soddalashtirilishi, soliqqa tortishda imtiyozlar kiritilishi, kreditlashda keng qulayliklar yaratilganligi Xorazm viloyati iqtisodiy muhitida kichik biznes sub'ektlari salmog'ini mustahkamlagan.

### 1.3.1-jadval

#### O'zbekiston Respublikasi YaIM va Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbikorlikning YaHM dagi ulushi (foizda)<sup>8</sup>



Xususan, viloyat 2013–2014 yillarda kichik biznes rivojlanishining asosiy tarmoq (sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, savdo, pullik xizmat) lari bo'yicha nisbiy barqaror dinamika kuzatilganligi holda, shahar va tumanlar miqyosidagi dinamik beqarorlik alohida tadqiqot yondashuvini taqozo etadi. Chunki, asosiy tarmoqlardagi kichik biznes rivojlanishining tahlili tumanlararo tafovutning jiddiy darajada saqlanayotganligidan dalolat bermoqda. (1.3.2-rasmga qarang)

Viloyatda 2014 yil kichik biznes sub'ektlari tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish 103,7o'sdi va 489888,6 mln. so'mni (viloyat sanoat ishlab chiqarishining 29,7 foizi), qishloq xo'jalik mahsuloti 106,6 foizga o'sib, 2147667,4 mln. so'mni (qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 96,0 (foizi) tashkil qildi.

Viloyat iqtisodiyotida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy xajmining 39,2 foizi, qurilish ishlarining 80,9 foizi kichik biznes korxonalari

---

<sup>8</sup> Respublika va Xorazm viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



hissasiga to`gri keldi.

Kichik biznes sub`ektlari yuk aylanmasi viloyat avtomobil transporti umumiy yuk aylanmasining 85,3 foizini, umumiy yo`lovchi aylanmasining foizini tashkil etdi.

Savdo aylanmasi umumiy xajmining 39,6 foizi yoki 926080,5 mln. so`mi (o`shish 111,5 foizni tashkil qildi) va aholiga pullik xizmat ko`rsatish umumiy xajmining 50,2 foizi yoki 483856,1 mln. so`mi (115,2 foizga o`sgan) kichik tadbirkorlik sub`ektlari hissasiga to`gri keladi.

Kichik biznes sub`ektlari tashqi savdo aylanmasi viloyat tashqi savdo aylanmasi hajmining 58,8 foizini tashkil qildi. Joriy yilda kichik biznes sub`ektlari tomonidan 49489,9 ming AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 27,6 foizi), miqdorida mahsulot eksport qilindi. Import 157038,2 ming AQSh dollari (umumiy importning 91,4 foizi) ni tashkil qildi.

So`nggi yillarda tadbirkorlik faoliyatiga davlat aralashuvining keskin kamayishi, hisobot topshirishning qisqartirilishi va soddalashtirilishi, soliqqa tortishda imtiyozlar kiritilishi, kreditlashda keng qulayliklar yaratilganligi Xorazm viloyati iqtisodiy muhitida kichik biznes sub`ektlari salmog`ini mustahkamlagan.

Fikrimizcha, mintaqa infratuzilmasida kichik biznes sub`ektlari faoliyatining yaxshi tashkil etilishi ish bilan bandlik muammosi yumshatilishini, aholi real daromadlari ortishini, soliq tushumlari ko`payishini, mahalliy budjet daromadlari o`shishini, iqtisodiyotda sog`lom raqobat muhiti yaratilishini hamda turli sektorlar orasidagi o`zaro aloqalar mustahkamlanishini ta`minlaydi.


Tadbirkorlikni rag`batlantirish va qo`llab-quvvatlash bo`yicha ko`rilgan mazkur choralar uning rivojlanish jarayonida, mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushining ortishida va iqtisodiyotning mazkur sektoridagi bandlik darajasida o`z aksini topmoqda.

O`tgan davr ichida, davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash maqsadida iqtisodiyotning mazkur sohasiga doir qabul qilingan farmonlar va qarorlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanish tomon yuz tutishida katta o`rin egalladi. Bu hujjatlar ham, o`z navbatida, yil sayin hayotga mos ravishda

o'zgartirilib, kengaytirilib borilmoqda. Bularning barchasi kichik korxonalar va xususiy tadbirkorlarning ko'payishi, erkin va keng faoliyat yuritishini ta'minlash hamda ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

### 1.3.2-rasm


#### Iqtisodiyot tarmoqlarida yaratilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) umumiy xajmida, Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik ulushining o'zgarishi, foizda



Demak, respublikamizda va viloyatlarda kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning ko'lami xorijnikidan qolishmaydi (1.3.3 – rasmga qarang).

Tahlillar ko'rsatishicha, hozirgi kunga qadar mamlakatimizda davlatning kichik biznesni qo'llab-quvvatlashi asosan quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirib kelindi:

- mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi uchun lozim bo'lgan huquqiy-me'yoriy asos yaratildi;



**1.3.3-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab- quvvatlovchi infratuzilmalar<sup>9</sup>**

<sup>9</sup> G'oyibnazarov.B.K, Sharipov.A.A”Hududiy tadbirkorlikni iqtisodiy rivojlanish tahlili”Toshkent,2011 y

- kichik biznesning rivojlanishida ustuvorliklar belgilandi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlash Dasturi ishlab chiqildi va joriy etilmoqda;

- kichik biznesning rivojlanishiga yordam beruvchi bozor infratuzilmasiga asos solindi;

- imtiyozli soliq, subsidiyalar, davlat va budjetdan tashqari fondlardan beriladigan imtiyozli kreditlar, xalqaro moliya institutlari kreditlarini jalb etish kichik biznes rivojlanishini rag`batlantiradi;

- huquqiy va jismoniy shaxslarga xorijiy va milliy valutada mikro kredit berish mexanizmi ishlab chiqildi va joriy etilmoqda.

Yuqorida aytib o`tilganidek, kichik biznesning, hoh u rivojlangan mamlakatlarda bo`lsin, hoh rivojlanayotgan va iqtisodiy o`tish davridagi mamlakatlarda bo`lsin, asosiy xususiyatlaridan biri iqtisodiyotning ushbu sektori doimo davlat tomonidan qo`llab-quvvatlanishga extiyojmand ekanligi hisoblanadi. Mamlakatimizda ham mustaqillikning ilk yillaridan boshlab hozirgi kunga qadar kichik biznesning rivojlanishini qo`llab-quvvatlash va tartibga solish davlatning muhim funktsiyalaridan biri bo`lib kelmoqda.

## **II-bob. Xorazm viloyatida hududiy tadbirkorlikni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning statistik tahlili**

### **2.1 Viloyatning tabiiy-geografik va ma'muriy-iqtisodiy salohiyati tahlili**

Bugungi kunda respublikamiz viloyatlari qatorida Xorazm viloyati iqtisodiyoti jihatidan barqaror rivojlanib borayotgan viloyatlar qatoriga kiradi. Yurtboshimizning ta`biri bilan aytganda, Xorazm “O`zbek davlatchiligining ilk tamal toshi qo`yilgan muqaddas zamin!”. Insoniyat tamadduni o`choqlaridan hisoblanmish bu ko`xna yurtdan ne-ne buyuk allomalar, qomuschi olimlar, ahli donishlar, avliyo- anbiyolar yetishib chiqgan.<sup>10</sup>

Xorazm viloyati O`zbekiston Respublikasining shimoliy-garbida joylashgan bo`lib, uning umumiy yer maydoni 6300 kv.kilometrni tashkil qiladi. Viloyat aholisi 1683,7 ming kishidan ko`proq bo`lib, ularning aksariyati (67%) qishloq tumanlarida yashab, mehnat qiladi.

Aholining milliy tarkibida o`zbeklar- 97,2 foiz, qoraqalpoqlar- 0,09 foiz, qozoqlar -0,75 foiz, turkmanlar -0,5 foiz, ruslar-0,4 foiz, koreyslar-0,2 foiz, tatarlar-0,3 foiz va boshqa mollat vakillari -0,5 foizni tashkil qiladi.

Viloyatda 10 ta ma`muriy hudud mavjud bo`lib, viloyat markazi Urganch shahrida 137,4 ming kishi istiqomat qiladi. Viloyatning yana bir yirik shahri Xiva tarixiy obidalarga boy turistik markaz hisoblanadi. Viloyat Turkmaniston davlati, mamlakatlarimiz hududlari-Qoraqalpog`iston Respublikasi va Buxoro viloyati bilan chegaradoshdir.

Viloyat iqtisodi asosini qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtirish, paxtani qayta ishlash va oziq-ovqat sanoati tashkil etadi. Bundan tashqari, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati ham tez sur`atlar bilan rivojlanib borayotgan tarmoqlar jumlasiga kiradi. Yengil sanoat asosini paxta tozalash zavodlari, paxta va ipak tolalarini yigiruvchi fabrikalar tashkil qiladi. Gilam to`qish viloyat sanoatining o`ziga xos jihatini elgilaydi.

Viloyat iqtisodida yangi yangi shakllanib borayotgan tarmoqlardan biri –

---

<sup>10</sup> [www.xorazm.uz](http://www.xorazm.uz)

mashinasozlik sanoati bo`lib, Xazarasp tumaninig Pitnak shahrida ishga tushirilmagan inshootlar negizida “Damas’rusumli mashinalarni yig`ishga mo`ljallangan liniyaning faoliyat boshlashi, viloyatda mashinasozlik sanoatini rivojlantirishda muhim omil bo`ldi.

Oziq-ovqat sanoatida Respublikada yagona bo`lgan Xazarasp shakar zavodi o`z faoliyatini olib bormoqda. Bundan tashqari non mahsulotlari, qandolat, sut va g`osht mahsulotlari ishlab chiqaruvchi ko`plab tarmoqlar ham tez sur`atlar bilan rivojlanib bormoqda.

Keyingi yillarda paxta xomashyosini qayta ishlash, ipak tolasiga ishlov berish va boshqa mahalliy xomashyo resurslaridan samarali foydalanish bo`yicha ishlab chiqarish quvvatlarini rekonstruksiya qilish, texnik modernizatsiyalash va kengaytirish ishlari olib borilmoqda. Paxta tolasini qayta ishlash tsiklini uzaytirish va ushbu strategic xomashyodan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarini texnologik yangilash va yangi quvvatlarni ishga tushirish evaziga meva, uzum, sabzavot va poliz mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash imkoniyatlari asta –sekin kengaymoqda.

Sanoat tez sur`atlar bilan rivojlanib borayotganligiga qaramasdan, qishloq xo`jaligi viloyat iqtisodiyotida katta o`rinni egallab turibdi. Ushbu sohada paxtachilik va g`alla yetishtirish eng asosiy yo`nalishlar bo`lib hisoblanadi. Bundan tashqari viloyatda ko`plab bog` va uzumzorlar, qovun va qovoq yetishtirish plantatsiyalari mavjud, kartoshka yetishtirish esa barcha hududlarda mavjud.

Viloyatning Respublika yalpi qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishidagi ulushi 10 foizni tashkil qiladi. Aholining 34,3 foizga yaqini agrar sektorda band (dehqon xo`jaliklaridagi bilan birga).

Xorazm viloyati investitsion faollik darajasiga ko`ra mamlakat hududlari ichida 11-o`rinda turadi. Milliy iqtisodiyotga jalb etilgan asosiy kapitalga investitsialarning 3,9 foizi, chet el investitsiyalarining 1,1 foizi mintaqa hissasiga to`g`ri keladi. Bu ko`rsatkichlar asosini mashinasozlikni rivojlantirishga yo`naltirilgan markazlashtirilgan investitsiyalar hamda yengil va oziq-ovqat

sanoatiga oid mahalliy loyihalar tashkil etadi.

Viloyat jami xizmatlar hajmi bo'yicha, aholi jon boshiga hisoblaganda, respublikada 11-o'rinni egallaydi. Bu ko'rsatkich o'rtacha mamlakat darajasining 3,2 foizini tashkil etadi va viloyat xizmatlar sohasi o'rtacha rivojlangan hududlar qatoriga kiradi. Moliya xizmatlari aholi jon boshiga hisoblaganda, mamlakat ko'rsatkichining 61,8 foizini, turistik xizmatlar 67,4 foizini, savdo va umumiy ovqatlanish 65,5 foizini, maishiy xizmatlar 81,6 foizini va boshqa xizmatlar 50,5 foizini tashkil qiladi.

Bundan tashqari viloyatda 2013 yilda viloyat tashqi savdo aylanmasi 249,5 mln. dollarni tashkil etib, shundan eksport hajmi 154,9 mln. dollarni (umumiy tashqi savdo aylanmasi hajmida 62,1 foiz) import hajmi 94,6 mln. dollarni (379 foizni) tashkil qildi. (8-lovaga qarang).

Viloyat eksporti 154,9 mln. dollarni (2012 yilda 155,0 mln. dollar) tashkil qilib, o'tgan o'sha yilning shu davriga nisbatan 100,0 foizni tashkil qildi.

Eksport salohiyati jihatidan mintaqa mamlakatimizning boshqa hududlariga nisbatan quyi o'rinlarni egallaydi. Eksport salmog'ining aksariyat qismini paxta tolasi tashkil qiladi. Mintaqa eksportining mamlakat eksporti hajmidagi ulushi 200-2013 yillar mobaynida 2,1 foizda, 1,0 foizga, import salmog'i esa 0,8 foizdan 0,7 foizga kamaygan.

Viloyat importi 2013 yilda 94,6 mln. dollarni tashkil qilib, 2012 yilning shu davriga nisbatan 102,0 foizni tashkil etdi.

Viloyat import tarkibiga oziq-ovqat mahsulotlari importi 3796,4 ming dollarni, kimyo va plastmassa mahsulotlari importi 26514,3 ming dollarni, mashina va asbob-uskunalar importi 35839,8 ming dollarni, qora va rangli metallar importi 2112,4 ming dollarni, energiya resurslari importi 486,9 ming dollarni va boshqa tovarlar importi 25865,5 ming dollarni tashkil qilib 2012 yilning shu davriga nisbatan 93,4 foizni tashkil qildi.

Viloyatda xorijiy capital ishtrokidagi korxonalar 2013 yilda 5 ta yangi xorijiy investitsiyalar ishtrokidagi korxonalar ro'yxatdan o'tgan bo'lib ular soni 31 tani, shundan faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy investitsiyalar ishtrokidagi korxonalar

soni esa 28 tani tashkil qilgan va 3 ta xorijiy investitsiyalar ishtrokidagi korxonalar faoliyat ko`rsatmasdan kelyapti. Ular tomonidan yil yakuni bilan 38,2 mlrd.so`mlik mahsulot (xizmatlar ) ishlab chiqarilib ,0,6 mln.dollar miqdorida eksport amalgam oshirilgan .Viloyat umumiy eksportida xorijiy investitsiyalar ishtrokidagi korxonalarning ulushi 3,9 foizni tashkil etgan.

Viloyat salohiyati tahlilini tizimiy tahlil yakunlariga ko`ra, quyidagilarni umumlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- viloyat ma'muriy-hududiy tizim sifatida milliy iqtisodiyotni boshqarishdagi muhim tashkiliy bo`g`in sifatida o`z ahamiyatini saqlamoqda;

- mamlakatdagi bozor ilohotlari sharoitida barchaga teng imkoniyatlar yaratilgani bilan teng daromadga egalik kafolatlanmaydi;

- mehnat taqsimotining tor doirada tashkil etilganligi mehnat takliflarini o`rtacha respublikadagi daromaddan past daromad bilan ta'minlanganlikni vujudga keltiradi;

- viloyatdagi tadbirkorlikning rivojlanish darajasi ichki muhitdagi tabiiy-iqlimiy, er-suv sharoitlaridan foydalanish sharoitlariga bog`liklikni oshiradi;

- moliyaviy taqchillik resurslardan foydalanish nomutanosibligini kuchaytiradi va boshqalar.

O`tgan yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotining yuqori barqaror sur'atlar bilan o`sishi va makroiqtisodiy mutanosibligi ta'minlandi, ishlab chiqarishni tarkibiy o`zgartirish va modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash ishlari davom ettirildi.



## **2.2 Hududiy tadbirkorlikning iqtisodiy samaradorligini statistik baxolash uslubi**

Iqtisodiyot fanlarida «samaradorlik» tushunchasi keng va tor ma'noda talqin qilinadi. U keng ma'noda atrof - muxitga samarali va adekvat yondashuv qobiliyati<sup>2</sup>, nisbiy samara, operatsiyalar va loyixalar<sup>3</sup> sifatida talqin qilinadi.

Samaradorlik mohiyatini aniqlashning bu ta'rifini qaraydigan bo'lsak, uning bir qancha resurlari mavjudligini ko'rish mumkin. Chunki, bu tushuncha bir qancha mezonlar, xususiyatlar orqali ifodalanishi mumkin. Shuningdek, «samaradorlik» kategoriyasi iste'molni qondirish sifatida xam, ishlab chiqarishning maqsadga muvofiqligi sifatida xam, korxonalarining samarali shakllanishi sifatida va xakozo ko'rinishlarda xam namoyon bo'ladi.

Xususan, E.L. Shikovaning fikricha, «ijtimoiy samara va sarflar qiymat baxosini o'lchash ko'p xollarda juda xam murakkab. Madaniy, ta'lim va boshqa xizmatlar iste'moli ijtimoiy samarasining namoyon bo'lishi muayyan vaqt davomida va ko'proq iqtisodiyotning turli tarmoqlarida o'z ifodasini topadi<sup>4</sup>. Shuningdek, servis tizimida unumdorlik ko'rsatkichidan foydalanish muayyan qiyinchiliklarni, xususan, servis faoliyati samaradorligini baxolash bo'yicha murakkablikni keltirib chiqaradi.

Shunday qilib, servis tizimida turli xizmatlar ko'rsatish faoliyati samaradorligini baxolashda resurs - sarf yondashuvidan foydalanish cheklanib bormoqda. XX asrning 20 - yillarida chet el iqtisodiy nazariyasida xam iqtisodiy, xam ijtimoiy, xam ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni baxolashga imkon beruvchi «maqsadli yo'naltirilganlik» yondashuvi taklif etildi. Bu yondashuv XX asrning 70 - yillarida (ya'ni, servis iqtisodiyoti shakllanayotgan sharoitda), ayniqsa, amaliy iqtisodiyotda keng rivojlanib bordi. Xizmat ko'rsatish soxasida ushbu

---

<sup>2</sup> . Кравченко С.А. Социально-экономический русско-английский словарь, – М.: Астрел, 2004. –С. 511.

<sup>3</sup> Борисов А.Б. Большой экономический словарь/А.Б. Борисов. – М.: Книжный Мир, 1999. –С. 825.

<sup>4</sup> Шикова Е.Л. Экономика и менеджмент не коммерческих организации: учебник. – СПб: Лан, 2004. – с. 134.

yondashuvdan foydalanish ko`proq ahamiyat kasb etishi mumkin. Shuning uchun xam unga to`xtalish maqsadga muvofiqdir. «Maqsadli yo`naltirilganlik»<sup>5</sup> yondashuvi samaradorlikni baxolashda resurslar yondashuvidan birmuncha farq qiladi.

Samaradorlikni xisoblashning maqsadga yo`naltirilganlik yondashuvi asoschilaridan biri amerikalik G.Emirsondir. U «Samaradorlikning o`n ikki tamoyili» nomli («twelve principles of efficiency 1912»<sup>7</sup>) asarida, unumdorlikni samaradorlikning o`n ikki tamoyilidan biri, deb aytadi. Ammo, G.Emerson fikricha, unumdorlik va samaradorlik teng ko`rsatkichlar emas. Shuni aytish kerakki, G.Emerson samarali ishlab chiqarishning yuqori unumdorligini birlamchi vazifa qilib qo`ymaydi<sup>8</sup>.

Samaradorlikni xisoblashda maqsadga yo`naltirilganlik yondashuvi rossiyalik iqtisodchi olimlar tomonidan xam keng yoritilgan. Xususan, O.B.Agabekyan, N.A.Gorelov, A. Shafronovlar ushbu yondashuvni yoqlab chiqishgan. Masalan, Gorelov N.A. «Unumdorlik faqat maxsulot ishlab chiqarish faoliyatini ifoda etadi, ishlab chiqarish samaradorligi esa murakkab, kompleks kategoriya bo`lib, mexnat jarayonida ishchi kuchini takror ishlab chiqarish xarakteri va unumdorlik darajasi xamda maxsulot realizatsiyasi bo`yicha korxonaning muvaffaqiyatli faoliyati bilan belgilanadi»,<sup>11</sup> deb ta`kidlaydi.

Unumdorlik va samaradorlikning mohiyatini yoritishda Q.X.Abduraxmonovning qarashlari ancha o`rinli. Uning fikricha, «unumdorlikni xisoblash usullari ishlab chiqarish samaradorligi bilan etarli darajada mos keladi, deb xisoblangan va bunga keng moslashtirilgan. Bunda mexnat natijalari faqat mexnat sarfi bilangina emas, balki, resurslar bo`yicha xamma turdagi sarflarning o`zaro nisbati qiymat shaklida aniqlanadi»<sup>12</sup>.

---

<sup>5</sup> Ba`zi manbalarda «maqsadli yondashuv» tushunchasi uchraydi. Masalan: Менар К. Экономика организации: пер. с фран. (под ред. А.Г.Хударкамова. XI. Менор.– М.: INFRA –М, 1999 –с. 131).

<sup>7</sup> Эмирсон Г. Двенадцать принципов производительности. – М.: Экономика, 1992.

<sup>8</sup> o`sha erda. – S. 35–36.

<sup>11</sup> Винокуров Р.А, Горюлов М.А, Экономика труда. – СПб.: Питер, 2004. –стр. 64–65.

<sup>12</sup> Abduraxmonov Q.X. Mexnat iqtisodiyoti (darslik) – T.: Mexnat, 2004. – B. 273–274.

O`zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo`nalishlaridan biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishdir. Shu nuqtai nazardan, ushbu soxani takomillashtirish bo`yicha amalga oshirilayotgan keng qamrovli chora-tadbirlar tadbirkorlarning erkin faoliyat yuritishi uchun kafolatlarning ta`minlanganligi, davlat tomonidan ro`yxatga olishning soddalashgan mexanizmining joriy etilishi va ularning moliyaviy qo`llab-quvvatlanayotganligi bilan izoxlanadi va bu soxaning kelajakda yanada ravnaq topishi uchun bajarilayotgan amallar, desak bo`ladi.

Xozirda tadbirkorlarga yaratilayotgan qator engilliklar barobarida, tadbirkorlikni rivojlantirish asoslarini takomillashtirish bo`yicha ayrim muammolar xam uchrab turibdi. Shu o`rinda ularni xal etish yo`llaridan biri sifatida kichik korxonalarda iqtisodiy samaradorlikni ifodalovchi ko`rsatkichlarni taxlil qilishning nazariy uslublari xaqida to`xtalamiz.

Ishlab chiqarish samaradorligi muxim iqtisodiy ko`rsatkich bo`lib, kichik tadbirkorlik iqtisodiyotining rivojlanish darajasini va oqilona tashkil etilishini aks ettiradi. O`z navbatida kichik korxonalarda iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish jarayonining unumdorligini, uning ijtimoiy-iqtisodiy natijalari bilan sarflangan jonli va moddiylashtirilgan mexnat o`rtasidagi nisbatni ifodalaydi.

Kichik biznesda maxsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko`rsatishning xar qanday jarayoni quyidagi model asosida xisoblanadi:

$$S = G` (R ; Kf)$$

bu erda: S- ishlab chiqarish natijasi (samarasi); G` - funktsional aloqa (bog`lanish) belgisi; R- ishlab chiqarishda foydalaniladigan resurslar; Kf- resurslardan foydalanish darajasi.

Modeldan ko`rinib turibdiki, samara faqat resurslarning mutlaq miqdorlari bilan emas, balki bu “resurslardan foydalanish darajasi” bilan xam aniqlanadi. Ishlab chiqarish natijalarini unga ketgan resurslar bilan taqqoslab, kichik korxonalarda ayniqsa moddiy resurslarning qanchalik oqilona ishlatilganligini, ya`ni tegishli resurslar birligidan foydalanish darajasini aniqlash mumkin.

Kichik biznesga oid ko`plab iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiy samaradorlik mutlaq (absolyut) va qiyosiy (nisbiy) jixatdan aniqlanadi.

Mutlaq samaradorlik ishlab chiqarish xarajatlari va resurslarning ma'lum turlaridan foydalanish darajasini aniqlash va baxolash uchun ishlatiladi va iqtisodiy samaraning umumiy miqdorini ifodalaydi.

Kichik tadbirkorlikda mutlaq samaradorlikni xisoblash yo`li bilan mexnat, moddiy resurslar, ishlab chiqarish fondlari va kapital quyilmalardan foydalanish aniqlanadi. Shuning uchun mutlaq samaradorlikni aniqlash muxim axamiyat kasb etadi.

Kichik tadbirkorlikda qiyosiy samaradorlik resurslardan yanada oqilona foydalanish yo`llarini aniqlash uchun esa ishlab chiqarish, xo`jalik echimlarining oqilona variantlarini asoslash va tanlashda qo`llaniladi.

Shu o`rinda, Xorazm viloyatida xam kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ular faoliyatini takomillashtirish va bu borada amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida bir qator kichik korxonalar va mikrofirmalar xamda kichik biznes sub`ektlari soni ortib bormoqda.

Jumladan, viloyatda jami 2010 yilda ro`yxatga olingan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 10747(79,1%) tani tashkil etgan bo`lsa, 2013 yil 1 yanvar holatiga ko`ra bu ko`rsatkich 10187(93,6%) tani tashkil etgan. 2010 yil 1 yanvar holatiga tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 10747 taga teng bo`lgan bo`lsa, shundan shu yilning o`zida tugatilganlar soni 861 tani tashkil etgan 2013 yil 1 yanvar holatiga tugatilganlar soni esa 1407 tashkil etgan. (5-ilovaga qarang).

2013 yilda viloyatning eng ko`p tashkil etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi Urganch shahrida – 2547 ta, Xiva tumanida – 1761 ta, Urganch tumanida- 893 ta va Yangiariq tumanida – 768 ta tumanlariga to`gri kelad. Viloyatning bu tumanlariga nisbatan eng kam tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar xajmi Gurlan tumani – 578 ta va Qo`shkopir tumani – 596) ta bo`lib viloyatning ushbu tumanlarida kuzatish mumkin.

Shu qatorda, Xorazm viloyatining qishloq xo`jaligi ko`rsatkichlarini tahlil qiladigan bo`lsak, viloyatda 2014 yilning yanvar-dekabr oylarida esa qishloq xo`jaligi masulotlari ishlab chiqarish amaldagi narxlarda 2236784,1 mln. so`mni va 2013 yilning shu davriga nisbatan 106,8 foizni tashkil qildi.

Viloyatda qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy xajmida dexqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish xajmi 1134707,9 mln. so`mni (2013 yil yanvar-dekabriga nisbatan (106,7foiz), chorvachilik mahsulotlari 1102076,3 mln. so`mni (106,8 foiz) tashkil etdi. Qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy xajmida dexqonchilik mahsulotlarining ulushi 50,7 foizni, chorvachilik mahsulotlari 49,3 foizni tashkil qildi.

Qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish xajmining xo`jaliklar toifalari bo`yicha taqsimlanishi quyidagicha ifodalanadi. (6-ilovaga qarang)

Quyidagi 7-ilovada Xorazm viloyatining fermer xo`jaliklarida asosiy qishloq xo`jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish bo`yicha ma`lumotlarni ko`rib chiqamiz. Hozirda fermer xo`jaliklari faoliyatini tanqidiy baholash asosida ularning yer maydonlarini maqbullashtirish bo`yicha keng ko`lamli, shu bilan birga, tahliliy ma`lumotlarga tayangan holda ishlar amalga oshirilmoqda.

Viloyatda asosan boshqa soxalarga nisbatan qishloq xo`jaligi soxasi ancha rivojlangan. Qolgan tarmoqlarni xam ulushini oshirish va ular faoliyatini yanada takomillashtirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, kichik tadbirkorlikda ishlab chiqarish samaradorligini izchil va mutanosib o`shirish sur`atlarini ta`minlash, jalb etilayotgan investitsiyalarni ko`paytirish xisobidan tarkibiy o`zgarishlarni qat`iy davom ettirish, kichik biznes korxonalarini modernizatsiya qilish va yangilash – biz uchun bosh vazifa bo`lib qoladi. Buning uchun quyidagi yo`nalishlarda ish olib borishni tavsiya etamiz:

1. Mintaqada kichik tadbirkorlik ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi, innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun sharoit yaratish uchun davlat quyidagilarni amalga oshirishi lozim: xususiy tashabbuskorlikni innovatsion tadqiqotlarga qaratuvchi qulay biznes - muxitni shakllantirish maqsadida iqtisodiy siyosat va tarkibiy isloxotlar siyosatini optimallashtirish; mikro, mezo va

mintaqaviy darajalarda innovatsion infratuzilmani rivojlantirishga ko`maklashish (sug`urtalash, innovatsion vositachilar instituti, texnoparklar va xakozo).

Mazkur vazifalarni xal qilish jarayonida xususiy tadbirkorlar va tovar ishlab chiqaruvchilar biznesni tashkil qilishning ana`naviy modelidan innovatsion modeliga o`tish imkonini qo`lga kiritadilar.

2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda innovatsiya faoliyatini faollashtirish ilmiy tadqiqot institutlari, oliy o`quv yurtlari va ushbu masalalar bilan shug`ullanuvchi kompaniyalar faoliyatiga bog`liq bo`ladi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasining ko`rsatishicha, bu soxada innovatsiya faoliyatini rivojlantirishga tamomila yangicha yondashuvni joriy etish uchun quyidagi tamoyillarga amal qilish maqsadga muvofiq:

-raqobatbardosh maxsulot ishlab chiqarish imkonini beradigan fan sig`imi yuqori bo`lgan yuqori texnologik jixozlarni joriy etish;

-sanoatda innovatsion faoliyatni rivojlantirishning yangi vositalarini yaratish (shartnoma, grant, kooperativ kelishuv) ;

-ilmiy-tadqiqot faoliyatini investitsiyalashni bilvosita rag`batlantirish usullarini rivojlantirish (soliq imtiyozlari, pasaytirilgan kredit stavkalari bo`yicha qarz berish, davlat ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va o`quv muassasalarini litsenziyalash jarayonini moliyaviy qo`llab – quvvatlash).

3. Xorazm viloyatida kichik korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida innovatsiya faoliyatini kengaytirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- ishlanmalar va ichki texnologik innovatsiyalarni investitsiyalaydigan xususiy sektor korxonalariga soliq imtiyozlarini berish;

-tezlashgan amortizatsiya uchun imkoniyatlarni kengaytirish.

Xulosa qilib aytganda, kichik korxonalar xo`jalik faoliyati samaradorligi, maxsulot va xizmatlar xajmi oshishida muxim omillardan biri hisoblanadi. Ushbu omilni faollashtirish kichik korxonalarining texnik ta`minlanganlik darajasini keskin yaxshilanishini, qurilish, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish va boshqa tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi

### **2.3 Xorazm viloyatida hududiy tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ustuvor yo`nalishlari**

Biz mustaqillikka erishgandan so`ng bozor iqtisodiyotiga o`tish modeli asosida 5 ta tamoyil asosida iqtisodiy islohotlarni olib bormoqdamiz. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab, iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi, davlatning bosh islohotchi vazifasini o`z zimmasiga olishi, qonun ustuvorligini ta`minlash, kuchli ijtimoiy siyosat olib borish, islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan tamoyillar, ayniqsa dunyoda avj olib borayotgan moliyaviy va iqtisodiy inqiroz sharoitida o`zining dolzarbligi va hayotiyligini yana bir bor isbotlamoqda.

Bu borada mamlakatimiz rahbarining quyidagi fikrlariga e`tiboringizni qaratmoqchimiz: “Bugungi kunda mamlakatimizni, avvalo, iqtisodiyotimizni isloh etish, erkinlashtirish va modernizasiya qilish, uning tarkibiy tuzilishini diversifikasiya qilish borasida amalga oshirilayotgan, har tomonlama asosli va chuqur o`ylangan siyosat bizni inqirozlar va boshqa tahdidlarning salbiy ta`siridan himoya qiladigan kuchli to`siq, aytish mumkinki, mustahkam va ishonchli himoya vositasini yaratdi”<sup>13</sup>.

Biz boshqaruvning bozor tizimiga o`tish jarayonida tadrijiy yondashuvni, «Yangi uy qurmasdan turib, eskisini buzmag» degan hayotiy tamoyilga tayangan holda, islohotlarni izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirish yo`lini tanladik. Davlat bosh islohotchi sifatida mas`uliyatni o`z zimmasiga olishi zarurligini biz o`zimizga aniq belgilab oldik.

Mamlakatimizning uzoq va davomli manfaatlari taqozo etgan holatlarda va keskin vaziyatlardan chiqish, ular tug`diradigan muammolarni hal etish zarur bo`lganda iqtisodiyotda davlat tomonidan boshqaruv usullari qo`llandi va bunday yondashuv oxir-oqibatda o`zini to`la oqladi.

---

<sup>13</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekistonda uni bartaf etishning yo`llari va choralari. Toshkent O`zbekistonning 2009-36 b

Shu o`rinda O`zbekistonda moliyaviy-iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va tarmoqlarining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta`minlash uchun etarli darajada mustahkam zahiralari yaratilganini va zarur resurslar bazasi mavjud ekanini ta`kidlash joiz.

Hech kimga sir emaski, bugun keng ko`lamda tarqalib borayotgan jahon moliyaviy inqirozining asosiy sabablaridan biri - bu banklar likvidligi, ya`ni to`lov qobiliyatining zaifligi bilan bog`liq muammoning keskinlashuvi, kredit bozoridagi tanglik, sodda qilib aytganda, pul mablag`larining etishmasligi bilan izohlanadi.

O`zbekiston o`zining mustaqil taraqqiyoti davrida qisqa muddatli spekulyativ kreditlardan voz kechib, chet el investitsiyalarini uzoq muddatli va imtiyozli foiz stavkalari bo`yicha jalb etish tamoyiliga doimo amal qilib kelmoqda.

Shuni ham qayd etish lozimki, mamlakatimizda qarzni o`z vaqtida qaytara olishga qat`iy ishonchimiz va kafolatimiz bo`lmagan paytlarda muayyan loyihalarni kreditlash bo`yicha ayrim takliflardan voz kechildi. Bu ham bizni odilona iqtisodiy siyosat yuritayotganligimizdan dalolat beradi.

Tijorat banklarimizning tashqi majburiyatlar bo`yicha to`lovlarining holati va hajmi masalasida hech qanday xavotirga o`rin yo`q. Chunki respublikamiz bank tizimi (31 ta tijorat banki faoliyat yuritadi) jahon moliyaviy inqirozining salbiy ta`siri va oqibatlaridan ishonchli tarzda himoyalangan.

O`zbekiston o`zining ishonchli va to`lov qobiliyatiga ega hamkor ekanini, mamlakatimizda chet el sarmoyasini jalb etish bo`yicha har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratilganini amalda isbotlamoqda.

2014-yilda iqtisodiyotimizga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 10,9 foizga o`sdi va AQSh dollari hisobida 14 milliard 600 million dollarni tashkil etdi. Bunda jami kapital qo`yilmalarning 21,2 foizdan ortig`i yoki 3 milliard dollardan ziyodini xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil qildi. Ularning to`rtidan uch qismi to`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalardir.

Aholining ish haqi va daromadlarini izchil va oldindan oshirib borish hamda iste`mol bozorida narxlar indeksining asossiz tarzda o`shishining oldini olishga doir chora-tadbirlar ham izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bu esa el-yurtimizning



farovonligini yuksaltirish, aholining xarid qobiliyatini oshirishni ko`zda tutadigan eng muhim ustuvor maqsadlarimizga to`la mos keladi.

Albatta, mamlakatimizda bunday chora-tadbirlar tatbiq qilinishi bilan bir qatorda bu jiddiy sinovni engish, hech shubhasiz, ko`p jihatdan hammamizdan avvalo mas`uliyatimizni teran his qilishni, barcha imkoniyat va resurslarimizni ishga solishni talab qiladi.

Bunday o`zgarish ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Nega deganda, bugungi kunda eksport asosan xom ashyo etkazib berishdan iborat bo`lib, dunyo bozoridagi narx-navo o`yinlariga haddan tashqari bog`lanib qolayotgani ayrim mamlakatlarda valuta tushumlarini kamaytiradigan, moliyaviy barqarorlikning yomonlashuviga olib keladigan, iqtisodiyotni izdan chiqaradigan jiddiy faktorga aylanmoqda.

Bizning keyingi yillarda eksport sohasida qo`lga kiritgan yutuqlarimiz, avvalo, mamlakatimiz iqtisodiyotini tubdan tarkibiy o`zgartirish va diversifikasiya qilish, qisqa muddatda biz uchun mutlaqo yangi, lokomotiv rolini bajaradigan tarmoqlarni barpo etish, ishlab chiqarishni modernizasiya qilish, texnik va texnologik yangilash dasturlarini amalga oshirish, zamonaviy bozor infratuzilmasini shakllantirish borasida o`z vaqtida boshlangan, chuqur o`ylangan va uzoq istiqbolga mo`ljallangan ishlarimizning natijasidir.

Prezidentimiz tomonidan aholini ish bilan ta`minlash borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar:

**a)** Aholini ish bilan ta`minlash muammolarini hal qilishda ham jiddiy sifat o`zgarishlari ko`zga tashlanmoqda. Biz uchun o`ta dolzarb bo`lgan bu masalani echishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bilan birga, xizmat ko`rsatish sohasi va kasanachilikning turli shakllarini keng joriy etish, qishloq joylarda chorvachilikni rivojlantirishni rag`batlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

**b)** Albatta, ish o`rinlari sonini ko`paytirishda xizmat ko`rsatish va servis sohasini rivojlantirish va kengaytirish muhim o`rin tutadi. 2014 yili aloqa, axborotlashtirish, moliya, bank, transport xizmati ko`rsatish, maishiy texnika va avtomobillarni ta`mirlash sohalari ancha yuqori sur`atlar bilan rivojlandi. So`nggi

to'rt yil mobaynida yiliga o'rtacha 50 foiz o'sishni ta'minlayotgan axborot-kommunikasiya texnologiyalari sohasida xizmat ko'rsatish jadal rivojlanayotganini alohida ta'kidlash lozim. Natijada xizmat ko'rsatish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi 2014 yildagi ulushi foizga o'sdi.

v) Takror va takror ta'kidlab aytish kerakki, ishlab chiqarish korxonalari bilan kooperasiya asosida barpo etiladigan kasanachilikni rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bu borada mamlakatimizda ish beruvchi korxonalar uchun ham, kasanachilik bilan shug'ullanuvchi aholi uchun ham rag'batlantirishning yaxlit va ta'sirchan tizimi yaratilgan.

g) Hozirgi sharoitda bank-moliya tizimi faoliyatini mustahkamlash va sifat jihatidan yaxshilash alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, bank-moliya tizimi rivoji bilan bog'liq masalalarga qisqacha to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda Xorazm viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rolini oshirish yuzasidan muayyan ishlar qilindi. Bu haqda ushbu bitiruv malakaviy ishining 1-paragrofda batafsil to'xtalib o'tilgan. Endilikda bu borada quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

-viloyatda sanoatni rivojlantirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni ko'rish, eksportbop mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalarni qo'llab-quvvatlash, chet el investisiyalari hisobidan ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash va texnologik qayta jihozlash, yangi korxonalarni tashkil etish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini oshirish;

-viloyatga xorijiy investisiyalarni kiritish bo'yicha xorijiy firma va korxonalar bilan hamkorlikni yanada kengaytirish, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqaradigan texnologiyalarni olib kelish, respublikada va viloyatda tashkil etilayotgan xalqaro yarmarkalarning imkoniyatlaridan keng foydalanish;

-kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, mahsulot ishlab chiqarishda va eksportda, sanoat, ayniqsa, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sohalarda kichik biznesning ulushini oshirish;

-fermer xo'jaliklarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning moddiy va moliyaviy bazasini mustahkamlash, ularga yangi imkoniyatlar tug'dirish, xizmat ko'rsatuvchi tuzilmalarni rivojlantirish;

-qishloq xo'jaligi korxonalariga o'z mahsulotlarini qayta ishlaydigan zamonaviy texnologiyalarni sotib olishi uchun yaratilgan keng imkoniyatlardan foydalanishga ko'maklashish choralari ko'rish;

-qishloq joylarida tashkil etiladigan sanoat korxonalarini xom ashyo, elektr energiyasi, gaz bilan uzluksiz ta'minlash hamda kommunikasion tarmoqlarni qurishni amalga oshirish.

Mintaqada iqtisodiyotni modernizatsiyalash va isloh qilish bo'yicha qabul qilinayotgan choralardan kelib chiqqan holda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyatini samarali tashkil etish, tadbirkorlik va investisiya muhitini yaxshilash, ularning qonuniy huquq va manfaatlari himoyasini ta'minlash, shahar va tumanlarda fuqarolarni xususiy mulk va qo'shimcha daromadga ega bo'lishini rag'batlantirish hamda aholini tadbirkorlikka jalb qilish orqali ularning turmush sharoitini yaxshilash, haqiqiy mulkdorlarning keng qatlamini shakllantirishni davom ettirishga, xususiy tarmoqni viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi roli va ahamiyatini tubdan oshirishga, iqtisodiyot sohalarida kichik biznesning salmog'ini oshirish, aholi xonadonlarida tadbirkorlikdan olinadigan daromadni ko'paytirish, har bir oilada tadbirkor bo'lishiga erishishga qaratilmoqda. Buning uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish nazarda tutilmoqda:

1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda uni rag'batlantirish jarayonlarini muvofiqlashtirish borasida:

-hududlarga, ayniqsa qishloq joylariga xorijiy sarmoyalarni jalb qilishni tezlashtirish, shu jumladan fermer va dehqon xo'jaliklarida yangi agro-texnologiya, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha mini-texnologiya, kichik dastgohlar va asbob-uskunalaridan foydalanishni tashkil etish orqali investisiya loyihalarini amalga oshirish va ishlab chiqarish turlari

rivojlanishini jadallashtirish. Bu borada lizing xizmatlaridan ham keng foydalanishni yaxshi yo`lga qo`yish;

-mintaqa va hududiy muvofiqlashtiruvchi kengashlari, ularning ishchi guruhlarining samarali faoliyat ko`rsatishini ta'minlash va faollashtirish, joylarda tadbirkorlik bilan shug`ullanishdagi to`siqlarni aniqlash va bartaraf etish;

-bozor infratuzilmasi tarkibiga kiruvchi mintaqadagi har bir tashkilotning, uning nizomidagi talabiga asosan faoliyat yuritishini takomillashtirish va tadbirkorlikni har tomonlama qo`llab-quvvatlashni amalga oshirish. Biznes-inkubatorlar faoliyatini xizmat ko`rsatish doirasini kengaytirish va sonini oshirish.

## 2. Bandlikni ta'minlash borasida:

-barcha moliyalashtirish manbaalari hisobidan, mehnat resurslari o`shishi, iqtisodiyotning tuzilmaviy qayta tuzilishlari oqibatida bo`shaydigan ishchilar soni bandligini zarur va etarli miqdorda ta'minlash maqsadida, shuningdek ishlashga muhtoj ishsiz fuqarolarni ish bilan band qilish sohasiga jalb etish uchun yangi ishchi o`rinlarini yaratish;

-mintaqa sharoitiga mos darajagacha ishsizlik darajasini pasaytirish;

-professional bilim yurti bitiruvchilarning sifatli mehnatidan foydalanishni ta'minlashni hisobga olgan holda mehnat bozorida sifat va miqdor muvozanatlashuvini ta'minlash;

-ishlashni hohlaydigan va ishlashga tayyor barcha ayollarni ish bilan ta'minlash;

-faoliyat ko`rsatayotgan va ishga tushiriladigan yirik korxonalarda, har bir hudud imkoniyat va xususiyatini hisobga olgan holda yangi korxonalarni qurish va ishga tushirish, qayta qurish, faoliyat yuritayotgan korxonalarda ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va zamonaviylashtirish yo`li orqali yangi ishchi o`rinlarini yaratish;

-kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlar sonining o`shishi hisobidan bu shakldagi faoliyatni keskin rivojlantirish;

-xususiy tadbirkorlik sohasiga iqtisodiy faol aholini jalb qilish, aholi ongida ijobiy tadbirkorlik psixologiyasini va zarur ishbilarmonlik ko`nikmalarini shakllantirish;

-tovar bozorlarida raqobatning rivojlanishiga to`sqinlik qiladigan rentabelsiz korxonalar va ularning birlashmalarini yiriklashtirish;

-qishloq xo`jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, xalq hunarmandchiligi sohasida oilaviy tadbirkorlikni har tomonlama rag`batlantirish va rivojlantirish;

-norasmiy bandlik tarmog`ida yaratilgan ishchi o`rinlarini bosqichma-bosqich rasmiy bandlik tarmog`idagi qonuniy ishchi o`rinlariga aylantirish;

-professional ta`lim yo`nalishlari bo`yicha hodimlarni tayyorlash tuzilmasini optimallashtirish va mehnat bozorining sifat va miqdor muvozanatlashuvini ta`minlash.

Bu ishlarni amalga oshirishda viloyat xokimligi iqtisodiyot boshqarmasi, viloyat monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlash viloyat boshqarmasi, viloyat savdo sanoat palatasi va boshqa mutasaddi tashkilotlar tomonidan:

-hududiy dasturlarni amalga oshirish, joylarda tadbirkorlikni rivojlantirishga to`siq bo`layotgan masalalarni viloyat va respublika miqyosida hal qilish bo`yicha takliflarni kiritish maqsadida har oy joylarga doimiy ravishda vakillar yuborib amaliy yordam ko`rsatish;

-hukumat qarorlarida belgilangan ko`p jihatli kafolat va imtiyozlarni tadbirkorlarga tushuntirish, joylarda uchrashuv va seminarlar o`tkazish, ushbu maqsadda ommaviy-axborot vositalari, jumladan mahalliy televidenie, radio va gazetalardan keng foydalanish;

-mahalliy hokimiyat organlari tomonidan tadbirkorlarga, bo`sh yotgan noturar joy hamda foydalanilmayotgan ishlab chiqarish bino va inshootlari, asosiy vositalarni sotish;

-kichik biznes sub`ektlarining ishlab chiqarish va moddiy texnik bazasini mustahkamlash maqsadida bankrot korxonalarining mulkini sotish amalga oshirilishi zarur.

3. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish, shahar va tuman hokimliklari huzuridagi tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish inspeksiyalari hamda tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun ruxsat beruvchi organlar ishini muvofiqlashtirish, hamda tadbirkorlarning muammolarini o'rganish va ularni hal etishga ko'maklashish borasida:

- tadbirkorlarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 20 avgustdagi 357-sonli qarorida belgilangan talablar asosida davlat ro'yxatidan o'tkazish va ularni tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun ruxsat beruvchi hujjatlarini soddalashtirilgan variantlarini amalda qo'llash;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ro'yxatdan o'tish davridan keyingi muammolarini aniqlash va ularni hal qilishga ko'maklashish bo'yicha kuzatishlar olib borish;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 24 maydagi "Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatiga olish va hisobga qo'yishning xabardor qilish tartibini joriy etish to'g'risida" 357-son qarori mohiyati va mazmuni yuzasidan tuman va shahar, mahalla fuqarolar yig'inlarida mahalliy idoralar va aloqador tashkilotlar ishtirokida uchrashuvlar, "davra suhbatlari" o'tkazish, mintaqaviy seminarlar tashkil etish.

4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari mahsulotlarini ichki va tashqi bozorga chiqarish uchun sharoitlar yaratish hamda xom-ashyoga bo'lgan talabni qondirish borasida:

- muntazam ravishda mahalliy tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar savdo ko'rgazmasi va yarmarkalarini tashkil etish;

- ishlab chiqarilgan tovarlarni birja, auksion va yagona elektron savdolar orqali iste'molchilarga qulay holda sotilishi yuzasidan monitoringlar olib borish.

5. Kichik biznes sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash va investisiyalarni jalb qilish borasida:

- tadbirkorlarning moliyaviy resurslarga ehtiyojlarini muntazam o'rganib borish, talabdan kelib chiqib, kredit mablag'lari bilan ta'minlash choralarini

ko`rish, kredit olish uchun hujjatlarni tayyorlashga ko`maklashish bo`yicha monitoringlar o`tkazish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivolantirish uchun maqsadli kredit mablag`lari ajratish;

- kredit va lizingga olinishi mumkin bo`lgan texnologiyalar to`g`risidagi ma`lumotlarni tadbirkorlarga etkazish, faoliyat boshlayotgan tadbirkorlarga mikrokreditlar ajratishga ko`maklashish va yo`nalish berish.

6. Tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini himoyalash, ma`muriy byurokratik to`siq va muammolarini aniqlash va ularni bartaraf etish borasida:

- yangi tashkil etilayotgan va faoliyat ko`rsatayotgan kichik biznes sub`ektlari faoliyatini tartibga solish, ularni qo`llab-quvvatlash bo`yicha barcha qonun va me`yoriy hujjatlarni tadbirkorlarga etkazish ishlarini amalga oshirish;

- tadbirkorlik sub`ektlarini ro`yxatdan o`tgandan keyin faoliyat ko`rsatmayotganliklari sabablarini, shuningdek ularning ixtiyoriy ravishda faoliyatini to`xtatish sabablarini tahlil qilish, takliflar kiritish;

- tadbirkorlarning huquqiy ongi va bilim-saviyalarini oshirish, ularning huquq va manfaatlarini himoyalash maqsadida tizimli o`quv kurslari Biznes inkubatorlar va Axborot maslahat markazlari tomonidan tadbirlari o`tkazish.

7. Kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlar uchun kadrlar tayyorlash hamda o`quv seminarlar o`tkazish jarayonini amalga oshirish borasida:

- tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanish istagini bildirgan fuqarolarni davlat ro`yxatidan o`tish jarayonida biznes asoslariga qisqa muddatli o`qitishni tashkil qilish maqsadida ishbilarmonlarga "Buxoro" biznes-inkubatorining joylardagi bo`linmalari va biznes-maktablariga o`qishi to`g`risida tavsiyalar berib borish, uning tumanlarda filiallarini yaratish loyihasini ishlab chiqish;

- muntazam turli xildagi "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning huquq va manfaatlarini himoyalash, ma`muriy byurokratik to`siq va muammolari va bartaraf etish chora-tadbirlari», "O`zbekiston Respublikasining iqtisodiy taraqqiyotida intellektual mulkning ahamiyati", "Tadbirkorlik sub`ektlarini davlat ro`yxatiga

olish va hisobga qo'yishning xabardor qilish tartibini joriy etish to'g'risida" mavzularida seminar uchrashuvlar o'tkazish.

8. Qishloqda ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini rivojlantirishni muvofiqlashtirish borasida:

- qishloq joylarida ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini rivojlantirishni muvofiqlashtirish ishlarini jadallashtirish, fermer xo'jaliklarini rivojlantirish Konsepsiyasi talablari bajarilishini ta'minlash yo'lidagi sa'y-harakatlarni davom ettirish;

- tumanlarda hokimliklarning dasturlari asosida fermerlarga mineral o'g'it tarqatish do'konlari, yonilg'i-moylash shahobchalari, muqobil mashina-traktor parklari, mini-banklar, sug'urta tashkilotlar bo'linmalarining to'laqonli faoliyat ko'rsatishi ta'minlash.

- shahar (tuman) bo'yicha iqtisodiyotni rivojlantirish dasturlarini bozor o'zgarishlariga moslashtirib fuqarolar, mahalla fuqarolari yig'inlari ko'rsatkichlarini tahlil qilib, dasturga o'zgartirishlar kiritish.

9. Ommaviy axborot vositalarida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash jarayonlarini yoritish borasida:

- kichik biznesni yanada rivojlantirishni ommaviy ahborot vositalarida yoritish maqsadida gazeta, radio va televideniya chiqishlar tashkil qilish;

- mahalliy gazeta va jurnallarda tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonlarini doimiy yoritilishini ta'minlash.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan xususiy tarmoqning ustuvor yo'nalish sifatida jadal rivojlanishi, uning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi ko'payishini ta'minlashga qaratilgan farmon va qarorlaridan kelib chiqib, mintaqada iqtisodiy islohotlarni yanada erkinlashtirish va chuqurlashtirishga doir hamda tadbirkorlarga imkoniyat darajasida ko'maklashish va faoliyat rivojiga to'siq bo'layotgan mummolarni aniqlash, barataraf qilish, iqtisodiy rivojlanish strategiyasini takomillashtirish maqsadida yuqoridagi belgilangan yo'nalishlar amalga oshirilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, innovasion faoliyatni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratish maqsadida davlat xususiy tashabbuskorlikni innovasion tadqiqotlarga qaratuvchi qulay biznes muhitini shakllantirishi; tarkibiy islohotlarni optimallashtirishi; mikro, mezo va mintaqaviy darajalarda innovasion infratuzilmani rivojlantirishga ko`maklashish (sug`urtalash, innovasion vositachilar instituti, texnoparklar va hakozi) lozim. Bu jarayonda xususiy tadbirkorlar biznesni tashkil qilishning ana'naviy modelidan innovasion modeliga o'tish imkonini qo`lga kiritadilar.

3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarida innovasion jarayonlarni jadallashtirish ushbu masala bilan shug`ullanuvchi ilmiy- tadqiqot muassasalari, oliy o`quv yurtlari va boshqa tashkilotlar faoliyatiga bog`liq. Shuningdek, bu sohada innovasiya faoliyatini rivojlantirishga tamomila yangicha yondashuvni joriy etish uchun quyidagi tamoyillarga amal qilish maqsadga muvofiq:

-raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradigan yuqori texnologik jihozlarni joriy etish;

-kichik tadbirkorlikda innovasion faoliyatni rivojlantirishning yangi vositalarini yaratish (shartnoma, grant, kooperativ kelishuv) ;

3. Statistika tahlillarida ko`rsatilgan Xorazm viloyatida hududiy tadbirkorlikni har tomonlama qo`llab quvvatlash va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirishga erishish uchun:

- birinchidan, qonunchilikda ko`zda tutilgan barcha rag`batlantirish va imtiyozlarning amalga oshirilishini taminlash asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonidagi to`siqlarga barham berish zarur;

- ikkinchidan, islohotlarning bu muhim ustuvor yo`nalishini qo`llab-quvvatlash imkoniyatlarini yanada kengaytirish va yangi manbalarini izlab topish lozim;

- uchinchidan, hududiy tadbirkorlikni kelajakda ishlab chiqarish va eksport tarkibida harakatchan, tez o`zgarish qobiliyatiga ega bo`lgan tarmoq sifatida iqtisodiyotda etakchi o`rin tutishiga erishish zarur;

- to`rtinchidan, hududiy tadbirkorlikni sifatli hamda zamonaviy texnik baza negizi yaratilishiga erishish zarur. Bozor infratuzilmasini maxsus markazlar, lizing kompaniyalar tarmog`ini har tomonlama servis xizmati yo`li bilan rivojlantirish lozim;

- beshinchidan, qishloq xo`jaligi sohasida fermer xo`jaliklari yanada rivojlanishi va mustahkamlanishiga jiddiy e`tibor berish hamda ichki bozorni qishloq xo`jaligi mahsulotlari bilan to`ldirish darkor.

Yuqoridagi bog`lanishlarni e`tiborga olish, Xorazm viloyati tuman va shaharlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo`yicha makro va mikro darajada iqtisodiy qarorlar qabul qilish viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqaror va mutanosib rivojlanishiga olib keladi.

5. Kelgusida viloyatda ko`zda tutilayotgan tarkibiy o`zgarishlarni amalga oshirish eng avvalo ichki resurslar va imkoniyatlardan to`laroq foydalanishni, xorijiy investisiyalarni jalb etish uchun qulay sharoitlar yaratishni taqazo etadi. Bu borada xorijiy investisiyalarning yangi shakllarini jalb etishni rag`batlantirish bo`yicha huquqiy bazani takomillashtirish; mavjud imtiyozlardan samarali foydalanish; davlat va xususiy tuzilmalar o`rtasidagi investision sherikchilik aloqalarini rivojlantirish; investision loyihalarni tanlashda va ularni asoslashda moliyaviy korxonalariga ko`proq erkinlik berish; xorijiy hamkorlarga mamlakat investision salohiyati to`g`risida kengroq statistik axborotlar berish talab etiladi.

6. Viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rolini oshirish yuzasidan quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- sanoatda kichik biznes korxonalarining ulushini oshirish bo`yicha amaliy chora-tadbirlarni takomillashtirish, eksportbop mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalarini qo`llab-quvvatlash, ichki va tashqi investisiyalar hisobidan ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash va texnologik qayta jihozlash, yangi korxonalar barpo etish orqali raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish hajmi oshishini rag`batlantirish;

-fermer xo`jaliklarini har tomonlama qo`llab-quvvatlash, ularning moddiy va moliyaviy bazasini mustahkamlash, ularga yangi imkoniyatlar tug`dirish, xizmat ko`rsatuvchi tuzilmalarni rivojlantirish;

-qishloq xo`jaligi korxonalariga o`z mahsulotlarini qayta ishlaydigan zamonaviy texnologiyalarni sotib olishi uchun yaratilgan keng imkoniyatlardan foydalanishga ko`maklashish choralarini ko`rish.

7. Viloyatda kichik tadbirkorlikning yanada rivojlanishida kredit muassasalarini rivojlantirish muhim rol o`ynashini hisobga olgan holda, bank-moliya tizimidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish borasida: aholi va tadbirkorlarning banklarga bo`lgan ishonchini mustahkamlash, banklararo raqobat muhitini shakllantirish, ular tomonidan ko`rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va ularning yangi turlarini rivojlantirish, mikro kreditlar berilishini sezilarli darajada kengaytirish lozim.

8. Hududlardagi tadbirkorlik taraqqiyotiga ko`maklashuvchi idora va muassasalar, komissiya va kengashlar faoliyatida ishlab chiqilayotgan va tatbiq etilayotgan tadbirlar, dasturlar va boshqa yondashuvlarda hududlarning qoloqlik sabablariga barham berishdagi mushtaraklik yetishmaydi. Tor doiradagi manfaatdorlikdan hududiy manfaatdorlik ustuvorligiga o`tish hududlar darajasidagi muttasil mutanosiblik va muvofiqlik oshib borishiga xizmat qiladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. O`zbekiston Respublikasining “O`zbekiston Respublikasida mulkchilik to`g`risida” gi qonuni. 1990 yil 30 oktabr.

2.O`zbekiston Respublikasining “O`zbekistonda tadbirkorlik to`g`risida”gi qonuni. 1991 yil 15 fevral.

3.O`zbekiston Respublikasining “Kichik va xususiy tadbirkorlikni rag`batlantirish to`g`risida”gi qonuni. 1995 yil 21 dekabr.

4.O`zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlar faoliyati erkinligini kafolatlari to`g`risida”gi qonuni. 2000 yil 25 may.

5.O`zbekiston Respublikasining “Bankrotlik to`g`risida”gi qonuni. 2003 yil 24 aprel.

6.O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 21 yanvardagi “Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PF-745-sonli farmoni.

### **II. O`zbekiston Respublika Prezidenti I. Karimov asarlari**

1.Karimov I.A. O`zbekiston: bozor munosabatlariga o`tishning o`ziga xos yo`li. - T: “O`zbekiston”, 1993.– 128 b.

2.Karimov I.A. Dehqonchilik taraqqiyoti – faravonlik manbai. -T: “O`zbekiston”, 1994.– 72 b.

3. Karimov I. O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida.T.“O`zbekiston” 1995. - 269 b.

4.Karimov I.A. Vazirlar Mahkamasining “2000 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yakunlari va 2001 yilda iqtisodiy islohotlarning huqurlashtirish va erkinlashtirishning ustuvor yo`nalishlari”ga bag`ishlangan majlisidagi ma`ruza. // “Xalq so`zi”, 2001 yil 12 fevral.

4.Karimov I. Iqtisodiyotni erkinlashtirish resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish bosh yo`limiz. -T.: “O`zbekiston” 2002. -156 b.

24. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O`zbekiston, 2000,

### III. Asosiy adabiyotlar

25. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islox etishdir. / Oliy majlis qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2005 yil 30 yanvar.

26. O'zbekiston Respublikasi Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yonalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi, Xalq so'zi gazetasi,

27. Karimov I.A. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitiduni bartaraf etishning yo'llari va choralari". -T: "O'zbekiston, 2009.-54 b.

28. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2011 yil 22 yanvar.

29. Abdullaev YO. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari 100 savolga- 100 javob. -T.: "Mehnat" 2002. - 156 b.

30. Abulqosimov X. Xususiy kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning iqtisodiy muammolari. -T.: "TDIU" 1998. -189 b.

31. Abdullaev YO. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. -T.: Mexnat 2002-34b.

32. Salaev S.K. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida kichik va o'rta biznes: muammolar, tahlillar va istiqbollar. -T.: Fan, 2002. - 128 b.

33. Gulomov S.S - Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. . T.: 1996, - 130

34. Некрасов Н.Н. Региональная экономика. Теория, проблемы, методы. - М.: Экономика, 1978, стр-19.

35. Ф.Котлер. Основы маркетинга. - М.: Прогресс, 1990, стр-38

36. A.M. Sodiqov "Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi" Toshkent 2014, 54-55 betlar

37. G'oyibnazarov. B.K., Sharipov. A.A. "Hududiy tadbirkorlikni iqtisodiy rivojlanish tahlili" Toshkent, 2011 y

38. Эмирсон Г. Двенадцать принципов производительности. – М.: Экономика, 1992.

39. Винокуров Р.А, Гориллов М.А, Экономика труда. – СПб.: Питер, 2004. – стр. 64–65.

40. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti (darslik) – T.: Mehnat, 2004. – B. 273–274.

#### **V. Davriy nashirlar va statistik to'plamlar**


41. "Xorazm viloyati yillik statistik to'plami". Statistika boshqarmasi, 2013 yil.

#### **VI. Internet ma'lumotlari**


42. Kichik korxonalar vakillarining beshinchi Butunrossiya konferentsiyasi materiallari, 2005 yil mart. //www.goteway.uz.

43. [www.google.uz](http://www.google.uz)

44. [www.xorazmstat.uz](http://www.xorazmstat.uz)



**Tadbirkorlik muhiti tarkib topishining ijtimoiy aloqalar sharoitidagi o`rni**



**2-ilova Tadbirkorlik faoliyati shakllanishi va rivojlanishi mexanizmining tashkiliy-iqtisodiy modeli <sup>14</sup>.**

<sup>14</sup>Rasm: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



**Xorazm viloyat aholisini shu yerda ishlab chiqarilgan mahsulotlar  
hisobidan oziq-ovqat tovarlari bilan ta`minlash darajasi<sup>15</sup>**

<b>Mahsulot turi</b>	<b>Viloyat ehtiyoji</b>	<b>2013 yilda ishlab chiqarish hajmi</b>	<b>Shu yerda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hisobidan ta`minlash darajasi %</b>
Shakar, ming tonna	37,2	356,4	11m.(1091)
O`simlik yog`i,ming tonna	14,0	22,8	163,2
Yorma , ming tonna.	6,4	8,4	130,6
Un(non hisobga olinganda),ming tonna	162,5	76,6	47,1
Tuz,ming tonna	5,4	2,5	46,4
Qandalatchilik mahsulotlari,ming tonna	3,2	0,6	17,9
Makaron mahsulotlari, ming tonna	9,3	1,0	10,6
Pishloq brinza,ming tonna	6,5	0,3	4,7
Margarin mahsulotlari,ming tonna	2,9	0,1	2,5
Kolbasa mahsulotlari,ming tonna	5,2	0,1	1,7
Mol yog`i, ming tonna	10,8	0,001	0,0
Gosht mahsulotlari,ming tonna	57,1	0,0	0,0
Smetana,qaymoq,ming tonna	9,2	0,0	0,0
Baliq konservalari, ming tonna	2,8	0,0	0,0
Choy,ming tonna	1,3	0,0	0,0

<sup>15</sup> A.M.Sodiqov"Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi" Toshkent 2014,54-55 betlar

ko'rsatgichlar/yillar	1998	1999	2000	2001	2002	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013
Aholi soni.kishi	1276.5	1298.7	1323.9	1347.7	1369.3	1390.9	1410.3	1432.8	1453.9	1477.8	1504.2	1530.8	1561.6	1601.1	1629.1	1653.8
Mehnat resurslari. ming kishi	630.0	647.0	663.9	683.9	712.8	738.3	762.3	787.3	814.2	823.3	847.7	869.9	892.8	922.4	957.4	989.7
Mehnatga layoqatli aholi soni.ming	616.3	625.9	645.4	675.6	708.1	733.8	757.6	782.6	809.8	818.4	842.4	864.3	945.1	976.1	1078.1	1108.4
Ishsizlar soni	1.8	2.5	2.5	3.8	4.7	6.6	8.2	4.9	3.0	2.0	3.2	1.2	30.9	33.8	35.6	36.4
Mehnatda bandlar soni,shundan;	449.0	456.0	467.2	468.3	478.3	490.4	506.6	522.3	538.0	553.6	571.1	588.1	606.7	625.2	643.4	709.1
Iqtisodiyotning rasmiy sektorida bandlar soni					249.3								603.1		415.8	
Iqtisodiyotning norasmiy sektorida bandlar soni					177.6								150.1		200.2	
Mehnat faoliyatini chet elga amalga oshirish uchun ketgan shaxslar					7.4								33.6	7781.0	9511.0	
Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi qo'shma koxonalarda bandlar soni																
Yaratilgan ish o'rinlari																

**Хоразм вилоятида 2010-2013 йилларда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг фаоллик кўрсаткичлари<sup>16</sup> ( фермер хўжаликларисиз)**


	Рўйхатга олинганлар		Фаолият кўрсатаётганлар		Фаолият кўрсатаётганлар улуши, фоизда		Фаолиятини тугатганлар	
	1.01.2010й.	1.01.2013й.	1.01.2010й.	1.01.2013й.	1.01.2010й.	1.01.2013й.	1.01.2010й.	1.01.2013й.
	10747	10187	8501	9535	79,1	93,6	861	1407
шаҳарлар:								
Урганч ш.	3056	2547	2572	2340	84,2	91,9	459	392
ТУМАНЛАР:								
<b>БОҒОТ</b>	571	652	396	620	69,4	95,1	29	55
Гурлан	606	578	428	548	70,6	94,8	27	62
<b>ҚЎШКЎПИР</b>	674	596	472	563	70,0	94,5	15	47
Урганч	929	893	702	848	75,6	96,0	88	208

<sup>16</sup> Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 11-октябрдаги 439-сонли Қарорига асосан

Хазорасп	616	693	503	658	81,7	94,9	47	60
Хонқа	771	683	625	643	81,1	94,1	20	125
Хива	1565	1761	1252	1642	80,0	93,2	62	170
Шовот	710	640	551	607	77,6	94,8	22	163
Янгиариқ	839	768	666	709	79,4	92,3	28	87
Янгибозор	410	376	334	357	81,5	94,9	64	38

**Qishloq xo`jaligi maxsulotlari ishlab chiqarish xajmining xo`jaliklar toifalari bo`yicha taqsimlanishi<sup>17</sup>**

umumiy hajmga nisbatana foizda



<sup>17</sup> Xorazm viloyati statistika axborotnomasi

**Xorazm viloyatining fermer xo`jaliklarida asosiy qishloq xo`jalik  
mahsulotlarini ishlab chiqarish<sup>18</sup>**

Mahsulot turlari	2013		2014		2013 yil yanvar dekabrning nisbatan foiz hisobida
	tonna	Ishlab chiqarish umumiy hajmdagi, ulushi foiz	tonna	Ishlab chiqarish umumiy hajmdagi, ulushi foiz	
Boshqoli don	118150	55,7	129980	58,0	110,0
Shu jumladan bug`doy	117695	55,7	129739	58,0	110,2
Kartoshka	21152	20,8	22065	20,4	104,3
Sabzavot	155112	32,8	164287	32,7	105,9
Poliz	65114	54,7	68190	54,3	104,7
Meva rezavorlar	81253	55,4	90234	55,9	111,1
Uzum	10768	32,5	12004	32,6	111,5
Go`sht tirik vaznda	3471	3,1	3755	3,1	108,2
Sut	32056	4,1	34650	4,2	108,1
Tuxum ming Dona	17885	5,9	19830	6,0	110,9

<sup>18</sup> [www.xorazmstat.uz](http://www.xorazmstat.uz)